

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYATI KAFEDRASI

Hamidova Xurshidaning

Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun «**Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlarini o`rganish orqali BBSO`larining kasbiy malakalarini rivojlantirish (bolalar adabiyoti va pedagogika fanlari misolida)**» mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

prof. U.Jumanazarov.

JIZZAX - 2011

R E J A:

KIRISH

**I BOB. YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG`U BILIG”
ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING TALQINI**

1.1.«Qutadg`u bilig» asari orqali hozirgi yoshlar ma'naviyatini
shakllantirish.....

1.2. Asar orqali yoshlarning ongiga milliy ruhni singdirish.....

II BOB. “QUTADG`U BILIG” ASARIDAN NAMUNALAR

2.1.«Qutadg`u bilig»da berilgan savollar.....

2.2.«Qutadg`u bilig»dan olingan hikmatli fikrlar

XULOSALAR

ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»** asarida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan¹. Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o'zining **«Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch»** asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi².

Hozirgi jamiyat madaniyatining shakllanishi va uning ma'naviy hayotida o'tmish madaniy merosi juda katta ahamiyat kasb etadi, chunki «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi».

Ma'lumki, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari turkiy xalqlar adabiyoti tarixida muhim o'rin egallab, jahon adabiyotidagi badiiy kashfiyotlarning eng porloq namunalaridan hisoblanadi. «Qutadg'u bilig» ning yaratilishi turkiy xalqlar adabiyoti tarixida ilk klassik poeziyaning kamolot davrini tashkil etadi. Mazkur asarning paydo bo'lishi tasodifiy bir hol bo'lmay, qadimiy tarixga ega

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 6.7.

² I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

boʻlgan turkiy xalqlar poeziyasi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida oʻzida turkiy poeziyaning barcha muvaffaqiyatlarini aks ettiradi. «Qutadgʻu bilig» haqidagi dastlabki ilmiy maqola XIX asrning birinchi yarmida eʼlon qilingan edi. «Uygʻur yozuvidagi turkiy qoʻlyozma haqida qaydlar» deb nomlangan bu maqola turkiy adabiyot yodgorliklarining eng qiziqarli va ahamiyatli namunasi boʻlmish «Qutadgʻu bilig» haqida dastlabki tasavvur bera olardi.

Asarni atroflicha oʻrganish ishida turkiyalik olimlarning hissalarini nihoyatda salmoqlidir. Ayniqsa, Muhammad Kuprilazoda, Rizo Nur, Faxri Funduk oʻgʻli, Notiq Orkin, Sodiq Oran, R.R.Arat, A.Dilachar va boshqalarning ishlarida «Qutadgʻu bilig» bilan bogʻliq koʻpgina masalalar haqida fikr yuritilgan.

Oʻtgan asrning 60-yillaridan boshlab «Qutadgʻu bilig»ni oʻrganish bilan rus turkologlari shugʻullana boshlashdi. 1861 yili N.I.Ilminskiy doston muqaddimasidan parcha va uning tarji-masini berdi. XIX asrning 90-yillaridan bu asarni oʻrganishga V.V.Radlov kirishdi va olim asar bilan deyarli 25 yil shugʻullandi. V.V.Radlovning buyuk xizmati shundaki, u asarning yangi va nisbatan mukammal nashrini amalga oshirdi.

«Qutadgʻu bilig»ni oʻrganishda V.V.Bartoldning alohida oʻrni bor. U qoraxoniylar davri, oʻsha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini chuqur oʻrganib, bunda «Qutadgʻu bilig»ning oʻrni va ahamiyatini birinchilardan boʻlib koʻrsatib berdi.

«Qutadgʻu bilig»ni oʻrganishda S.E. Malovning xizmatlari tahsinga loyiqdir. Olim asarning turli nashr va qoʻlyozmalarini, ayniqsa Namangan nusxasini puxta oʻrganish asosida olimlarning asar matni yuzasidan yoʻl qoʻygan qator kamchiliklarini toʻgʻriladi. «Qutadgʻu bilig» ning ayrim qismlarini chop ettirdi, asarni tran-skriptsiya qilishda tamomila yangicha yoʻl tutdi va bu sohada jiddiy yutuqlarga erishdi.

Asarni oʻrganishda P.M.Melioranskiy, A.Samoylovich, K.K.Yudaxin, N.A.Baskakov, E.E.Bertelslarning ham xizmati katta. Ular asar matnini toʻgʻri oʻqish, transkriptsiya va tavsif qilish printsiplari hamda turkiy tillar taraqqiyotini oʻrganish borasidagi ahamiyati toʻgʻrisida qimmatli fikr bildirishgan.

«Qutadg`u bilig»ni o`rganishda A.A.Valitovning alohida xizmatlari bor. Olima birinchi bo`lib bu asarning tarixiy-adabiy manba sifatidagi ahamiyatini ko`rsatib va shu yo`nalishdagi ishlarni boshlab berdi. A.A.Valitovning «Qutadg`u bilig» haqida e`lon qilgan ishlari faqat asarni o`rganish sohasida emas, umuman turkshunoslik faniga qo`shilgan buyuk hissadir.

O`zbekistonda bu asarni o`rganish «Qutadg`u bilig» ning uchinchi – Namangan (Toshkent) nusxasining topilishi bilan bog`liqdir. Bu haqda dastlab «Turkiston» gazetasida xabar e`lon qilinadi, so`ng Fitrat,24 shuningdek, A.Sa'diyning maqolalari bosiladi. Fitrat-ning «O`zbek adabiyoti namunalari»da asarning shu nusxasidan parchalar tegishli izohlar bilan beriladi. Asarni o`rganish va uni targ`ib qilishda A.P.Qayumov, A.Abdurahmonov, N.M.Mallaev, Q.Karimov, Q.Sodiqov, kabi olimlarimizning ham tegishli hissalar bor.

MBIning amalga oshirishning maqsadi – boshlang`ich sinflarda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asarini o`rganishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

MBI ob'ekti: Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asarini o`rganishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishning pedagogik jarayonlari.

MBI maqsadi: boshlang`ich sinflarda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asarini o`rganishning pedagogik asoslarining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

MBIning metodlari: ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, metodik adabiyotlarni tahlil qilish; turli o`quv muassasalari ta'lim oluvchilari ijodkorlik sifatlarini takomillashtirishning ilg`or tajribalarini o`rganish va umumlashtirish; kuzatish, qiyoslash, umumlashtirish, suhbat; anketa; test; pedagogik tajriba-sinov.

Tadqiqotdan olingan asosiy natijalar:

- boshlang`ich sinflarda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asarini o`rganishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

- Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asarini Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asarini o`rganishda shaxs sifatlarini shakllantirish

muammosining tadqiq etilganlik darajasini belgilandi va barkamol-ijodkor shaxsni tarbiyalashning metodologik asoslarini ishlab chiqildi;

- Yusuf Xos Hojib ijodida ijodkorlik va intellektual sifatlarning shaxsni shakllantirishda tutgan o`rni tahlil qilinib, barkamol-ijodkor shaxsni tarbiyalash g`oyalari va uni rivojlantirish yo`nalishlarini asoslandi.

MBIning tuzilishi. MBI kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. YUSUF XOS QOJIBNING “QUTADG`U BILIG” ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING TALQINI

1.1. «Qutadg`u bilig» asari orqali hozirgi yoshlar ma'naviyatini shakllantirish

Ma'lumki, yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, kelajakda jamiyatga foydasi tegadigan, odobli, axloqli, chuqur ilmiy salohiyatga ega va eng asosiysi, ham ma'nan, ham jismonan sog`lom avlodni tarbiyalash pedagogika fanining eng ustuvor vazifasi hisoblanadi. Shunga ko`ra, kelajak avlodni komil inson darajasida tarbiyalashda bizning ota–bobolarimiz qoldirgan boy ma'naviy meroslarimizning o`rni beqiyosdir. Mustaqillikning bizga bergan qutlug` ne'matlaridan biri shu bo`ladiki, biz ajdodlarimiz qoldirib ketgan boy ma'naviy merosdan bema'lol va atroflicha o`rganish imkoniyatiga ega bo`ldik.

Ilmda ilk badiiy doston sifatida tan olingan shoir va mutafakkir Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub bo`lgan “Qutadg`u bilig” asari XI asrda yozilgan bo`lib, unda ijodkor o`zining axloqiy qarashlarini va munosabatlarini aks ettiradi. Asar didaktik, ya'ni pandnoma janrida yozilgan bo`lib, unda biron bir masala yo`qki, insonni befarq qoldirsa. Asar to`rt qahramon: adolat ramzi – Kuntug`di; vazir, davlat va baxt ramzi – Oyto`ldi; vazirning o`g`li, chuqur aql sohibi – O`gdulmish va qanoat timsoli – O`zg`urmish obrazlari asosiga qurilgan bo`lib, muallif ular orqali o`zining maqsad va g`oyalarini bayon etadi. Asar tuzilishiga ko`ra, avval nasriy muqaddima bilan boshlanadi, so`ngra 73 bobdan iborat kitobning asosiy mundarijasi keltiriladi.

“Qutadg`u bilig”da turli–tuman mavzular bilan bog`liq nasihatlarini ko`rishimiz mumkin. Shulardan biri–asarda ilm va uning afzalligi to`g`risidagi qimmatli pand – o`gitlardir. Qarashlarimni 1990 yili Toshkentdagi “Yulduzcha” nashriyotida nashrdan chiqqan professor Boqijon To`xliiev qalamiga mansub “Qutadg`u bilig”ning hozirgi o`zbek tilidagi bolalarbop bayoni orqali ifoda etishga harakat qilaman.

“Qutadg`u bilig”ning bahor madhiga bag`ishlangan maxsus bobidan keyin “Inson qadri bilimda” deya nomlanuvchi faslga duch kelamiz. Ulug` shoir ilm mavzusiga alohida e'tibor berar ekan, ilm va uning afzalligi to`g`risida chuqur mushohadalar yuritadi, o`z fikrini ajdodlaridan qolgan hikmatlar orqali asoslashga harakat qiladi. Inson o`z bilimi, aqli, idroki sabab mavjudotlar ichra eng oliysi sifatida gavdalanadi va shu sababdan ham uni Hazrati inson, deb ataymiz. Adib yuqoridagi fikrimizni nazmiy yo`l bilan juda chiroyli tarzda ifoda etgan:

“Yana bir hikmat bor: Hazrati odam–
Bilim aqlu idrok sabab muhtaram”.

Mutafakkir ilm to`g`risida fikr yuritar ekan, o`quvchilarga uquv, ya'ni o`rganish, izlanish bor joyda ulug`lik bo`ladi, bilim kimda bo`lsa, albatta, o`sha inson bilimli, ya'ni ulug` inson bo`ladi, deb aytib o`tadi. Haqiqatan ham, inson zoti paydo bo`libdiki, u muttasil ravishda o`rganishda, biror nimani o`qishda bo`ladi. Bu esa uni buyuklikka, ulug`likka, biror ish–harakatni yanada va undanda yaxshiroq qilishga da'vat etadi. Inson uquvliligi sababli tabiat gultoji hisoblanadi. Ulug` shoir uquvlilik to`g`risidagi nasihatlarini davom ettirib shunday deydi:

“Uquvli uqaru bilimli bilar
Bilimli, uquvli shodlikka to`lar”

Shoir ushbu misralar orqali o`qigan va o`qigan narsasini uqib oladigan inson ma'lum darajadagi bilimga ega bo`ladi,—deydi. Bilimli insonlar o`z hayotidan mamnun bo`ladilar, zero u bilimsizdan farqli o`laroq, o`z muammolari echimini oson topadi. Asarning badiiy qimmatini shundaki, bizdan X asr oldin yozilgan ushbu asardagi uquv, bilim borasidagi mulohazalar o`zining zarracha qadrini yo`qotmagan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bilim va bilimli insonlar hamma zamonlarda birdek e'zozlangan va ardoqlangan.

Quyidagi misralarga e'tibor bering:
“Bilimsiz kishida kasallik bo`lar
Kasal emlanmasa, yashamas, o`lar!”
“Kelu kasalingni tuzatgin nodon
Bilimsiz tubandir, bilimdon shodon”*

Yuqoridagi misralarda ulug` shoir bilimsizlikni qattiq qoralaydi. Zero, bilimsiz inson nodon, johil bo`lib u o`zi yashab turgan jamiyatga nafi tegmas. Adib kuyinchaklik ila insonni ilm olishga va u orqali qutga, saodatga erishishga chaqiradi. Agar og`ir dardga chalingan inson kasallikka qarshi chora – tadbirlar ko`rmas ekan, uning hayoti o`lim bilan yakun topadi. Insonni adib kasal, ya'ni bilimsiz; sog`lom, ya'ni bilimli insonlarga ajratadi. Shoir bu bilan go`yo tananing qaysidir jarohati ma'lum bir muddatda bitib ketadi, lekin inson bilimsiz bo`lsa bu foniylar dunyodan ko`zi yumuq holda o`tib ketishiga ishora qiladi. Ko`ramizki, Yusuf Xos Hojib ilm to`g`risidagi qarashlarida komil inson va uni tarbiyalash masalalari yotadi. Uning nazarida inson ham jisman, ham ma'nan etuk bo`lmog`i lozim.

Adib nodon kishilarga qarata shunday deydi: “Kasalingni tuzatgin”. Xo`sh, nodon dono bo`lmog`i uchun nima qilmog`i lozim? Adib bu xitob orqali ilmli bo`lishning erta – kechi yo`qligiga, ammo dunyoda biror ilmni o`rganmasdan o`tib ketish tubanlik ekanligi haqida ta'kidlab o`tadi. Misralarda qarshilantirish san'atidan mohirona foydalanilgan. Bilimsiz kishi mudom qayg`uda yuradi. Chunki u dunyoni juda tor ilg`aydi, ya'ni uning dunyoqarashi tor bo`lib atrofdagi voqea va hodisalarning mohiyatini yaxshi tushunmaydi, uni o`zicha talqin etadi.

Bilimli inson esa mudom shodon. Chunki u dunyoga ochiq ko`z, teran aql bilan qaraydi. Har bir narsa to`g`risida aql nuqtai – nazaridan fikr yuritadi. Aqlni hissiyotdan ustun qo`ya oladi.

Asarda ilm to`g`risida yana “O`quv qut beradi, bilim sharaf–shon”, deya nomlanuvchi fasl ham mavjudki, unda yuqoridagi “Inson qadri bilimda”, –deya nomlanuvchi fasl mazmunan boyitiladi:

“O`quv qut beradi, bilim sharaf–shon,
Shu ikkov tufayli ulug`dir inson“*

Inson o`qish, ilm olish orqaligina saodatga erishadi, bilim orqali esa shon–shuhratga burkanadi, –deydi shoir. Insonning ulug`ligi o`qish va bilimdandir. Haqiqatdan ham, o`z bilimi orqali insonlarni ma'naviyatli qilishga yoki o`z asarlari orqali ularni ilm o`rganishga da'vat etgan inson shubhasiz, ulug` insondir. Ilmlilik–ulug`likdir.

“Qutadg`u bilig” asari shoirning o`zi haqida yagona ma'lumot beradigan asari bo`lib, shoir asardagi misralarda uning bu qimmatli durdonani 50 yoshlar atrofida yozganligi haqida aytib o`tilgan. Darhaqiqat, 50 yoshli inson katta hayotiy tajribaga ega bo`ladi. Adib asarni yozishga katta tayyorgarlik ko`rgan. Asar ulug` adibdan juda katta ilmiy – axloqiy salohiyatni talab qilgan. Adib asarda goh vatanining chin farzandi, goh mutafakkir, goh tarixchi, goh qomusiy bilim egasi, goh inson ruhiyatini chuqur biluvchi ruhiyatshunos, goh shoir sifatida gavdalanadi.

Asar aruz vaznida bitilgan. Bu vazn adibdan so`ng mumtoz adabiyotning etakchi vazni bo`lib qoldi. Shuningdek, asarda adabiy janrlardan keng va o`rinli foydalanilgan.

Asarning muvaffaqiyatiga to`xtaladigan bo`lsak, asar turkiy adabiyotda ilk badiiy doston sifatida yuzaga kelgan. Asar bizdan X asr ilgari oldin yozilgan bo`lsada, undagi har bir bob va fasllar butunligicha bugungi kunning nuqtai-nazariga mos kelishi – asar nechog`lik ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Asarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga kelsak, asar boshdan oyoq insonlardagi ta'limiy va tarbiyaviy sifatlarni o`stirishga qaratilgan. Ayniqsa, unda ilmning nihoyatda e'zozlanishi, ilmli insonning qorong`ulikni yorituvchi ”Mash'al”ga o`xshatilishi diqqatga sazovordir. Adib diqqatini o`z asarida to`g`rilik, soflik, mehr–muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof va adolat, sadoqat, xushmuomalalik kabi axloqiy sifatlarni o`stirishga qaratgan.

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg`u bilig” asari sof didaktik asardir. Asar ulug` mutafakkirning aytganidek:

“Boshdan oxirigacha donolar so`zi
Go`yoki tizilgan marjondek o`zi”.*

1.2. Asar orqali yoshlarning ongiga milliy ruhni singdirish

«Qutadg`u bilig» turkiy tildagi poetik janrlarning shakllanishi va evolyutsiyasini kuzatish uchun muhim manbadir. Turkiy tildagi she'riy shakllar, ularning o`zaro munosabati, umuman, turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi holati

va uning oldingi davrlar, shuningdek, qo`shni xalqlar adabiyoti bilan aloqasi XI asr adabiy etiketiga munosabati kabi masalalarni «Qutadg`u bilig» orqali yoritmoq mumkin. Bu masalalarning birortasi ham chuqur tahlil etilgan emas.

Turkiy tilli adabiyotdagi she'riy shakllarning poetikasi va rivojlanish qonuniyatlari ham etarli darajada o`rganilmagan.

«Qutadg`u bilig» janr nuqtai nazaridan murakkab asar. Uning janr xususiyatlari haqida yo`l-yo`lakay bo`lsa-da, fikrlar bildirilgan. Bu haqda juda qisqa mulohazalar bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilarning kengroq tarzda fikr yuritganlarini kuzatish mumkin.

«Qutadg`u bilig» haqida so`z yuritilgan asarlarda uning mavzu qamrovi va ifoda tarzi haqida fikrlar bayon qilingan.

Masalan, Najib Osimbek: «Qutadg`u bilig» mavzu e'tiborila «Siyosatnoma»ning aynidir. Turk avzoining mashhuri o`lan o`n birli vaznda va tarzi masnaviyda yozilmish o`lan bu asari nafis beshinchi asri hijriydagi turk jamoatining haqiqiy bir tasvirini, afkori ma'naviya va siyosiyasini go`stariyur»¹, desa, H.Tavfiq, M.Ehson, H.Oliylar o`zlarining «Turk adabiyoti namunalari»da uning masnaviy shaklda yozilganligini qayd qilish bilan cheklanishadi². Shu xil fikrlarni boshqa ko`p tadqiqotlarda ham ko`rish mumkin.³

Tadqiqotchilarning deyarli barchasi asarning didaktik xarakterda ekanligini ta'kidlashadi.

II BOB. “QUTADG`U BILIG” ASARIDAN NAMUNALAR

2.1. «Qutadg`u bilig»da berilgan savollar

1. Kitob qadrini hamma emas, bilimdon kishilargina biladi. Nodon kishilardan bilimsizlikdan boshqa nima keladi?! (8–bet).

2. Olamda xuddi shunday kitob yoza oladigan kimsa bormi? Agar bo`lsa, ko`rsat, men uni kuchim etgunicha maqtayin! (8–bet).

3. Bilim haqida aytilgan fikrlarga quloq tutilsa, ularda shunday hikmat mavjud: «Bilimdonga balo yo`q». Bilimga intilmagan kishidachi? (11–bet).

4. Zakovat har doim shunday uqtiradi: dag`al so`z kishi boshiga ofat, hasadli so`z kishining qizil rangini somonga aylantiradi. So`zlashda xato qilmaydigan odamlarni sanab bera olasanmi? (13–bet).

5. Tirik oxir o`lar qaro er quchib,

Nom ezgu esa–chi, ketarmi o`chib?!

Ikki xil nom qolar tilda begumon,

Biri yaxshiligu birisi yomon.

Dono maqtov olar, nodonchi, so`kish,

O`zing o`yla, senga ma`qul, qaysi ish?! (15–bet).

6. Jahonda bilimdan ulug`, bilimdan aziz nima bor? Bilimsiz desalar, bu inson uchun haqoratdir. (16–bet).

7. Zakovat o`zaro ont ichishib do`stlashgan kishilarga o`xshasa, bilim yaqin qarindoshlarga o`xshaydi. Buni dilga tugib olish lozim. Do`st og`aynilar, qarindosh urug`lar davrasidagi kishi o`zini dadil sezadi. Bilimsizlarchi? (17–bet).

8. Kim oltmish yoshga etsa, undan halovat ketadi, yuzi qishga aylanadi. O`ttiz yosh yig`ib berganini ellik yosh qaytarib oladi. Agar oltmish yosh qo`l tekkizsa, kishining ahvoli nima kechadi? Ey ellik yosh, men senga nima qilgan edim. Nega o`ch olish uchun menga yuzlanding?! (20–bet).

9. O`quv qadrini ham uquvli bilar, bilim sotsa dono, bilimli olar. Chunki bilimning otini bilimligina biladi. Bilimsiz kishi bilimning qiymatini qaerdan bilsin?! Zar qadrini zargar biladi–da! (21–bet).

10. Elig Oyto`ldini turli ish va topshiriqlar berib sinab ko`radi. Jumladan, bir kuni u yigitni o`z yoniga chorlaydi. Uni o`tirishga undaydi. Oyto`ldi yonidan bir to`l (kaltak) chiqaradida o`shanga o`tiradi. Elig unga ko`p savollar beradi, yigit javob qaytaradi. Kuntug`di bundan shodlanadi, chehrasi ochiladi. Buni ko`rib, Oyto`ldi ko`zlarini yumib oladi. Elig hayratga tushadi:

G`azablandi elig, yuzi ko`p qaro,

Dedi: Shoshqaloqlik kishiga balo!

Ishonchda yanglishdim chog`i men o`zim,

Nima deb ochayin kishiga so`zim?! (22–bet).

11. – Endi nuqsonlaring haqida ham gapirib ber, –deydi Kuntug`di.

–Aslida nuqsonim yo`q, –javob beradi Oyto`ldi. –Men (ya'ni oy) o`zgarib, yangilanib turaman. Axir eski narsa yaroqsiz bo`ladi. Yangi narsa borida eski nega kerak?!

Elig: O`tkinchiligingni angladim. Ammo seni tutishning yo`li bormi? (23–bet).

12. Ezgu doim maqtaladi. Uning yaxshi xislatlari yomonlar orasida ham hikoya qilinadi. Ammo ezgular kamtar bo`lgani uchun yomonlar ularning kunini yoritmaydi. Kim ezgulik qilsa, uning o`zi ham ezgulik topadi. Ezgulikka kim to`yadi?! (28–bet).

13. Shunday ekan, yaxshi va yomon, foydali va zararli, kerakli va ortiqcha so`zlashning chegarasi qaerda? Buni qanday bilish, ajratish mumkin? Ularni belgilovchi me'yor nimada? (31–bet).

14. Elig bir kuni O`gdulmishni chorlab undan insondagi foydali fazilatlar hamda yaramas odatlar qanday bo`ladi? –deb so`raydi. (38–bet).

15. Elig O`gdulmishdan: –Kishi onasidan dono bo`lib tug`iladimi yoki muayyan bir yoshga etganidan keyin zakovatli bo`ladimi? –deb so`raydi. (38–bet).

16. –Butun deb atarlar, qanday bo`lar u?

–Omonatga sodiq bo`ladi mangu.

–Lashkarda qay biri tugal er bo`lar?

–Xulqi go`zal bo`lsa, o`shal er bo`lar!

–Kishilardan kimi loyiq taqdirga?

–Saxiy maqtovgayu baxil–taxqirga! (39–bet).

17. Elig bir narsaga hayron edi: O`gdulmishning otasi o`lgan paytda bu yigit juda yosh qoldi. Ammo undagi bu komillik, aqlu zakovat qaerdan etishdi? Bilimni biluvchilar qanday bilib olishadi? Donolik yo`li qanday? (40–bet).

18. Bilim bilan kishi judo hayvondin

Buyukroq nima bor, qani ayt ondin?! (41–bet).

19. Uquv – idrokning yuzi, chiroyi qanaqa? Uning xulq–atvori qanday bo`ladi? Turish turmushi nechuk? (42–bet).

20. Elig bir kuni O`gdulmishni huzuriga undadi.

–Jon va tan etti andomga boqsa, ko`riladiki, har bir a`zo o`z ulushini talab qiladi. Ko`ngil hamda ko`zning totig`i–muddaosi nima? Ular orqali jon nima ulush talab qiladi?

21. Kuntug`di yana savol berdi:

–Yoqtirishning nishonasi qanaqa? Hamma yaxshi ko`raman, yoqtiraman deb da`vo qiladi, bu da`voning ma'nisi nima? (43–bet).

22. Agar tinglash bilan chin donolik egallanar ekan, –deydi Elig, –ko`p so`zlash boshning ketishiga sabab bo`ladi. Ammo savol so`ragan zoriqqan bo`lib qolmaydimi? (43–bet).

23. Xalqning orasida bilimli va bilimsiz, chig`oy va boy, uquv–idrokli, zehnsiz, bechora va gadoylar bor. Ularni yo`lga boshlash uchun bek qanday bo`lishi kerak? Uning nomi yoyilib, ishlari yaxshilanishi uchun nimalar lozim? (44–bet).

24. Toki eli yashab ketsa, buduni boyisa, ezgu nom chiqarib, xalqi ko`paysa! Kumush va qimmatbaho javohirlar bilan xazinani to`ldirib yov bo`ynini yanchsa! Mana shularga erishish uchun nima talab etiladi?

25. El ichida biror nojo`ya ish qiluvchi kishi topilib qolguday bo`lsa, uni elboshlig`i tartibga chaqiradi, to`g`ri yo`lga soladi. Bordiyu boshliqning o`zi nojo`ya qadamlar tashlasa, yaroqsiz ishlar sari mayl bildirsa, uni kim tuzatadi?! (49–bet).

26. Nopok, yaroqsiz kir narsalarni el – yurt suv bilan yuvib tozalaydi, poklaydi. Agar suvning o`zi kir, iflos bo`lsa, uni qanday tozalashadi? (49–bet).

27. Kishining tobi qochsa, kasal bo`lsa, uni tabib emlaydi, davo – darmon qilib tuzatadi. Ammo tabibning o`zi sog`lig`ini yo`qotguday bo`lsa, unga kim yordam qo`lini cho`za oladi?! Uni kim tuzatadi? (49–bet).

28. Yov qilmaydigan ishni ham yomon, yaramas xulq–atvor qila oladi. Shunday ekan, tuban fe'llilikning yovdan nima farqi bor? (48–bet).

29. Bitig bilmas esa kishi o`g`loni,
Nechuk bilinardi yil, oy, kun soni?!
Dono yozib qo`ymas esa birma–bir,
Hisob uchun qolgay edi ne tadbir?! (53–bet).

30. Yov ot solib, senga dag`dag`a qilsa, bardosh ko`rsat, orqa berma, tarqalsa qattiq bos. Yov qochgudek bo`lsa, to`xta, izidan yiroq bormagin, agar u yana ortiga o`girilsa, qocholmay qolishing mumkin. Tang ahvolga tushgan yov o`limga yuz uraveradi. O`limga yuz bursa uning ro`parasida kim tura oladi? (57–bet)

31. Ko`ngil sirin asra, chiqarma tilga,
Chiqdimi, cho`zilgay o`kinchi yilga.
Qizil til qora bosh yovi beayov,
Yovni kim tutadi, ayt–chi, betushov?! (61–bet).

32. Elig O`gdulmishga yuzlanib shunday dedi:
–Xizmat qiluvchi xodimlar bu qadar xilma–xil bo`lar ekan, ularning haqlari qanday to`lanadi? (62–bet).

33. O`gdulmish shunday dedi:
–Ey hoqon, sen inson va insoniylik haqidagi so`zlarni yaxshi anglading. O`lgan odamdan nima qolishi mumkin? (65–bet).

34. O`gdulmish, aytginchi, ne xil kechar kun,
Qashshoqmi ko`p elda yo bag`ri butun?
El ichida qanday yomon, yovuz bor?
Elat holin aytgin yashirmay biror.
El tilida qanday so`zlar yuradi,

So`kishmi yo ko`proq maqtov keladi?
Nuqsonlarim ko`pmi fazilatim yo?
Menga aytib bergin, qilayin davo.
Qomu – qarindoshlar ko`nglini bilgin,
Shunday odam bormi? Sen darak qilgin. (66–67–bet).

35. –Ey O`zg`urmish –deb davom etdi maktubini Elig. –Qarindoshing O`gdulmishni sening huzuringga yo`llamoqdaman. Eshitishimcha, sen yaqin qarindoshlardan kechib, shahar qishloqlardan yuz burib ketibsan. Faqat toat ibodatni deb tog`larda yashashni ixtiyor etibsan. Qardoshlar senga nima qilgan edi? Ulardan nega yuz o`girding? (69–bet).

36. Dunyoda haqiqiy kishi deb ataladigan ikkita toifa bor: ularning biri o`rgatuvchi, bo`lagi – o`rganuvchi. Kishi bir narsani boshqalarga o`rgatmasa, yoxud o`zgalardan o`rganmasa, uning hayvondan nima farqi qoladi?! (69–bet).

37. Agar o`zing boshqalarni mukammal o`rgangan bo`lsang, endi buni amalda qo`llagin, toki o`zgalar ham bu bilimdan bahramand bo`lishsin. U erda sening qiladigan ishing birgina namoz bo`lsa kerak. Ehtimol oz–moz ro`za ham tutarsan? (69–bet).

38. Bundan boshqa yana qanday toatlarni qila olasan? Agar sen shularga mag`rur bo`layotgan bo`lsang, toatlaring bekor. Toat qilish uchun eng yaxshi joy shahar va qishloq, ya'ni odamlar orasidir. (69–bet).

39. –So`zlaringni eshitdim, dedi O`zg`urmish. –Endi bularga javob berishim kerak. Sening aytgan so`zlaring yaqinlikdan nishona. Qardosh g`amini qardosh emasa, bo`laklar bu haqda qachon bosh qotiradi? (72–bet).

40. Foyda zarar ko`rishga yoxud yaxshi–yomon bo`lishga insonning o`zi sabab. Ey qarindosh, sen meni kishilar orasiga undaysan, ammo ularga qo`shilishning qanday sirlari bor?! Bitta o`zing bilan muloqotda bo`lib, qancha ibodatdan qoldim, agar ko`pchilik bilan aralashsam, mening holim nima kechadi?! (73–bet).

41. O`gdulmish: –Sen aytgan so`zlarning barchasi go`yoki foyda. Ammo unda haqiqat, chinlik qani? (73–bet).

42. Kishilarga to naf, berolsin kishi,
Oti tirik bo`lsin, maqtoqli-ishi.
Tiriklik nishoni, nedir belgisi,
Kishiga bo`lmasa uning ezgusi?! (73–bet).
43. Yovi bor odamning hayoti totli bo`larmidi? (74–bet).
44. Kimning xislat – fazilati ko`p bo`lsa, uning yovi ham bo`ladi. Kingaki yovlar ko`plashib yondoshar ekan, o`sha kishining xislat va fazilatlari ko`p deb o`ylayver. Yov bilan bellashgan mardlarning nomi olamga yoyiladi.
45. Yovsiz kishining otini kim ham bilardi?! (74–bet).
46. Sen «hech kimning payini qirqmadim, yoki o`zgalar haqida g`iybat so`zlar gapirmadim» deding. Axir atrofingda hech kim bo`lmasa, el–yurt orasida yashamasang, kimni so`zlaysan, kim haqida bir gap aytasan? (74–bet).
47. Agar yaqin do`stlar, qarindosh–urug`lar oyoq uzib qo`ysa, sen o`zing yaqinlik iplarini ulagin. Hozir bir o`zing yakka – yolg`iz qolib, qanday ezgulik topding, ey fe`li go`zal? (75–bet).
48. Dunyo lazozatlarining eng keraklisi tinoh omon hayot keohirish. Emak – ichmak ham lazozat. Bu lazozat aslida tomoqniki. Ammo osh singmay qolsa mijoz buziladi. Mijoz aynisa, uning iloji nima bo`ladi? (77–bet).
49. El yurtsiz yashab bo`ladimi? (76–bet).
50. Axir gadoy ham, boy ham o`limidan keyin teng bo`ladiku! Shuning uchun ham olam terish, mol–dunyo to`plash yarasharmikan?! (76–bet).
51. Inson yaxshi niyatlar, ezgu orzularni deya tinim bilmaydi. Ammo hech bir xizmat qilmasdan sovg`a–in'om olish g`alati bo`lmasmikan? (79–bet).
52. Yana bir andisha ham bor: sen ham men ham insonmiz. Ikkalamiz ham inson bo`lganimizdan keyin nima uchun men senga topinib – sig`inishim, senga xizmat qilishim kerak?! (79–bet).
53. Ey Elig! Senga xizmat qilishga tayyorman. Buning uchun bitta shartim bor. Uni bajarsang, har qanday ishlaringga bo`yin beraman:
- Bajo etgin avval so`ngsiz tiriklik,
Yana bir–qarilik ko`rmas yigitlik.

Salomat tut keyin – bo`lmayin kasal,
Bir boylik berginki, bo`lmay kambag`al.
Bu to`rt tilagimni o`zing ravo qil,
Keyin xizmat etay bo`lib senga qul.
Bularni berolsang, ey elga boshim,
Senga qul bo`layin, egayin boshim!

Agar bularni muhayyo etishga kuch–qudrating etmasa, sening qanday fazilatlar bor? (79–80–betlar).

54. Ey Elig, bu dunyo o`tkinchi. U har kun olqinadi: kamayib, ozayib boraveradi. Nazar sol: ota – onalar, qarindosh – urug`lar qani? Ular o`tib ketishadi. Endi ularga o`z farzandlarini ko`rmoq qaerda?! Odamzod bir kuni o`lishga mahkum. (81–bet).

55. Elig dedi: nechuk ekan O`zg`urmish, qani gapir, bo`tam, nechuk bo`ldi ish? (81–bet).

56. Elig: Qardoshing etuk kishi ekan, –dedi. –Koshki uning so`zlarini eshitmagan bo`lsam. Endi bu so`zlarni eshitdim, shuning uchun meni tilagimga etkaz. Biz tilagan narsa o`z elimiz ichida bo`lsa–yu, unga erisha olmasak, noqulay bo`lmaydimi? (82–bet).

57. Avvalo senga ko`p olqish, yuz ming salomlar yo`llayman, ey zakovati tugal. Ko`nglimda bor gaplarni bitib maktub yuborayapman. Qanday yashayapsan, ey donishmand? (83–bet).

58. Ezgu kishi deyishadi, bu qaysi kishi? (84–bet).

59. Dedi: qardosh, nega orom bilmading?

Shubhasiz, bu erga bekor kelmading.

Ochiq aytdim so`zni eshitding uni,

Nega qiynagaysan bu qadar meni? (84–85–bet).

60. O`zg`urmish, maktubni o`qidi turib,

Bir oz o`yga toldi ma'nisin ko`rib.

O`zicha o`ylandi: «Bu qanday bo`ldi,

Qardoshim izimga buncha tikildi?!» (85–bet).

61. Olib berishga kishining moli bo`lmasa, barcha ezguliklarga ham uning qo`li qisqalik qilib qoladi. Bu ezguliklarni nega qoldirmoqchisan? Bu o`git – nasihatlarni nima uchun hohlamayapsan? Senga aytgan so`zlarimga nazar sol. Haqiqat men aytganlarimda emasmi, aytgin–chi? (85–86–betlar).

62. Ta'magir kishi bilan yaqin turmaslik kerak. Ta'magir yov. Uning ta'ma dardi tutsa, seni aka ham, uka ham deyaveradi. Ta'masi qonmasachi?! U sendan yuz o`giradi. Seni ilgari sira ham ko`rmagandek tutadi. (91–bet).

63. Ochofat kishining ozig`i balo,
Ozig`i balomi, unga ne davo?! (101–bet).

64. Kishi tashvish chekib «mol–dunyo» yig`sa–yu, o`zi bu dunyoda ko`p qololmasa, bu yumushlardan nima naf bo`ladi? Kishi bu dunyoni deb elib–yugursa, toat–ibodat ishi to`xtab qoladi–ku?! (104–bet).

65. Bu dunyo moli–tiriklik uchun. Tiriklik tugasa, molning zavoli ham shu–da! Narsa, mol–dunyo yig`ib umr o`tkazsang, o`lganingdan keyin ular kimga qoladi?! (104–bet).

66. Qorning bir marta to`ysa, ikki kun yurishing mumkin. Bir to`n kiysang, u ikki yilga etadi. Mana shu ikkisi uchun o`zimni qul qilib, kishining ishini qilsam, yarasharmikan?! (105–bet).

67. –Maktub yana nima uchun kerak? –Hayron bo`ldi Kuntug`di. –Sen o`zing borsanku, shuning o`zi kifoya qilmaydimi? Maktub ishonchsiz kishilar uchun bo`ladi. Sendan ishonchliroq kim bor?!

Yamog`i begi ne der, eshit bu so`zin,
Butun ish ichida pishirgan o`zin.
Elchiga ishonsa, bitig ne kerak?
Kechig sayoz bo`lsa, etig ne kerak?
So`zing tilga chiqar, eshit uni ham,
Yana bir bitig, ey tetig, ne kerak? (106–bet).

68. O`zingni, qiynaysan nega kuch bilan,
Nega yopishding sen menga o`ch bilan?
Ichkari kirgin, yur, menga ayt so`zing,

Nega qaytib kelding yana sen o`zing? (107–bet).

69. Dedi: ezgu bo`ldi ishimiz bari,
Rostdan chin bo`lsa gar u deganlari.
Elig so`rar: o`zi keladi qachon,
Uchrashuv joyimiz qaer, bilag`on? (108–bet).

70. Ko`ngil bilan kelding sen endi menga,
Ruxsat etsang savol berayin senga.
Bilarsanki, salom fazli ko`p ulug`,
Oldin salom degan yo`l ochar to`liq.
Meni ko`rding, ammo salom qilmading,
Nega bu kalomni lozim bilmading? (109–bet).

71. O`zg`urmish fikrini davom ettirib shunday dedi:
Qanday zarar ko`rar mendan bu hoqon?
Kichikdan uluqqa tegarmi ziyon? (111–bet).

72. Bu bayt o`xshash keldi, unga ey saho,
Anglay desang uni o`qi avvalo.
Kishiman deganning sanoqsiz soni,
Kishiga naflisin tilasang–qani? (112–bet).

73. –Aslida mendan o`git–nasixat nega kerak? –deya so`z boshladi O`zg`urmish. –Bu davronning, dunyoning o`gitlari senga kifoya etmasmi?! Nazar solib ko`rsang, dunyoda qanchadan – qancha ajdodlar yashab o`tishgan. Hozir ular qani?

74. Kuntug`di O`zg`urmishni qanday kuzatganini so`radi. So`ng shunday dedi: –Men olam yukini elkamga oldim. O`ylab ko`rsam, menda ham bitta tana, bitta tomoq bor. Shuncha tashvishlar bita boshimga nima uchun kerak? Axir gadoylar ham ochidan o`lmayapti–ku! (114–bet).

75. Sen nega bu qadar alam chekmoqdasan, tiriklik senga nima uchun g`amdan iborat bo`lib ko`rinmoqda? (115–bet).

76. Elga adolat qil, ular rohat–farog`atga erishsin. Senga buning evaziga duolar keladi. Shu kifoya emasmi?

– Men ham shuni o`ylamoqdaman, – dedi Elig. – Bu ishda yana o`zing madadkorsan. Elni yashnatishning qanday chora – tadbirlari bor? (115–bet).

77. O`zg`urmish hayron bo`lib so`radi: –Ey yuzli qardoshim, nega kelding? Mening qaytganimga bir oy ham bo`lmadi–ku! Xafaroq ko`rinasan, qizil yuzing ham sariqroq ko`rinyapti?! Senga nima qayg`u tegdi? Qani gapir, nima bo`ldi? (119–bet).

78. O`zg`urmish o`z o`gitlarini davom ettirdi:
Senga ezgu etdi saralik uchun,
Bu ezguga jigar poralik uchun.
Ne uchun buzarsan bu ezgu ishing.
Senga naf bo`larmi keyin yoz–qishning?!
O`z nafing qo`yib ham el nafin buzib,
Nima naf tilarsan bunda bo`y cho`zib? (120–bet).

79. Sen bu haqda tamoman unutib yubordingmi, yoki o`zing bularni pardalab, aytmay turibsanmi?! Bilasan, olamdagi maqtov–olqishlarning son–sanog`i yo`q. Ammo ularning eng ko`pi vafoli kishilarga tegishli. (121–bet).

80. Bugunga kelib elig ko`rsatgan bu oliyhimmatliklarni unutdingmi? Ezgulikka qaytariladigan javob shu bo`ladimi, u ko`rsatgan yaxshiliklarning qimmatini shu edimi?! (121–bet).

81. Haqiqat dag`aldir, bilib ol buni,
Keyin nafi tegar, shod etar seni,
Haqiqat ko`ngilga botadi dag`al,
Dag`al so`z – haqiqat, haqiqat qani?! (121–bet).

82. Sendan naf etadigan payt endi etishdi. Xuddi shu paytda sen o`zingni olib qochsang, Kuntug`dining ko`ngli achib qolmasmikan?!

U senga qanchalar yaxshiliklar ko`rsatdi, bu yaxshiliklarga javob berish kerak emasmi, ey yaxshi nomlim?! (122–bet).

83. Dediki: qaerdan kelursan o`zing?
Ey dono, ne erur tilaging, so`zing? (127–bet).

84. – Kasallik ham odamning yo`ldoshi, –dedi O`gdulmish, nega sen bunday chiroyli bo`lmagan gaplarni gapirayapsan? O`lishingni qaerdan bilding? – Men tush ko`rdim javob berdi O`zg`urmish. (128–bet).

85. Kishi joni erkin, u erur ozod,
Uchib borsa bir bor keladimi bot.
Bu tushning ta'biri shu yanglig`, uka,
Bo`lakcha ta'birning hojati nega? (131–bet).

86. Jadallab etishdi saroy ichiga,
Elig chorladi, u dami ichida,
Boqib ko`rdi Elig: shu O`gdulmishmi?
Yo tushdi boshiga bir mushkul ishmi?! (133–bet).

87. Kuntug`di O`gdulmishning qiyofasini ko`rib, ajablandi. Uning yuzi qayg`uli ko`rinar, ko`ngli tushuk edi. Elig unga yuzlandi:

Nega sarg`ayibdi bu qizil yuzing,
Nega rang olibsan olamdan o`zing?!
Sal alam, mashaqqat etsami senga,
Rohatu farog`at qaerda menga?! (133–bet).

Yusuf Xos Hojibning tilagi:

Tilamadim aslo sharaf – shonu ot,
O`qisa bas dedim yaqinmi yo yot.
O`quvchi o`qisa zamonlar o`tib,
Duo qilsamikan meni yod etib?!

2.2. «Qutadg`u bilig»dan olingan hikmatli fikrlar

1. Odamzod naslining ulug`ligi bilimdan. U aql–idrok tufayli ne–ne tugunlarni echishga qodir. Uquv–idrok va bilim egasi bo`lgan har qanday odam sharaflidir. (11–bet).

2. Bilim o`ylab ko`rilsa, misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o`z tilaklarini topadi, orzu–maqsadlariga erishadi. (12–bet).

3. Uquv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro`shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi. Buni yaxshi bilib olish kerak. Qut–izzatni ham, obro`–e`tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e`tibor bermasa, uni noo`rin qo`llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas. (12–bet).

4. O`ziga esonlik tilagan har bir odam tilidan yaroqsiz so`zini chiqarmasin. Bilib so`zlangan so`z donolik sanaladi. (12–bet).

5. Hech qachon ko`p gapirma. Juda oz so`zla. Tuman so`z, tugunini bitta so`z bilan yozib yubor, ya'ni oz so`zlarga ko`proq ma'no sig`dirish payidan bo`lgin. (12–bet).

6. Ortiqcha aytilgan so`z kishi ko`ngliga malol. Ammo so`zlamaslik ham mumkin emas. Bu holda soqov degan nomni orttirib olish mumkin. Shunga ko`ra o`rtacha yo`riq tutish lozim. Yo`riqni o`rtacha tutgan odam qut – iqbolga erishadi. (13–bet).

7. Tilning keltiradigan nafi juda ko`p. Ularni g`ofillik qilib qo`ldan chiqarmaslik kerak. Til goho maqtalsa, goho so`kishga mos bo`ladi.

8. Nazar solib qarasang, bilimsiz odam ko`zi ko`r kishiga o`xshaydi. Uning ko`zini ochish uchun bilimdan hissa berish lozim. (13–bet).

9. Tug`ilgan odam albatta o`ladi. Undan hech bir nishona qolmaydi. Lekin uning so`zlari ezgu bo`lsa, boshqalar yuragidan joy olib ulgursa, uning nomi mangu qoladi, tillardan – tillarga, dillardan–dillarga ko`chib yuraveradi. (13–bet).

10. Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Ularning biri xush qiliq, boshqasi – ezgu so`zdir. Tug`ilgan odamdan qoladigan meros – so`z. Uning o`zi o`lib ketadi, so`zi esa mangu qoladi. (13–bet).

11. Kishidan kishiga qoladigan meros – so`z. _Unga amal qilsang ming – ming foyda va naflar olasan. (13–bet).

12. Bilimsiz kishilar – donolarning dushmani. Bilimsiz doimo donolarga xorlik tilaydi. (14–bet).

13. So`zni bilimdon kishiga so`zlash kerak. Bilimsizning tilini tushunish qiyin. To`g`ri so`zni so`zlaganda har kim xatoga yo`l qo`yishi mumkin. Ammo bu xatoni donishmand hakimlar bartaraf etishadi. (14–bet).

14. Soʻz tuya burniga oʻxshash – unga jilov solsa boʻladi. Yoxud u tuyaning boʻyni kabidir – etovga yuraveradi. (14–bet).

15. Dunyoda har bir soʻzini oʻylab, tushunib, taroziga solib gapiradiganlar ham talay. Ularni tushunganlar esa aziz va moʻtabar. Olam yaxshiliklarining hammasi uchun sabab ilmdir. (14–bet).

16. Odamzod er yuzida paydo boʻlgan dastlabki paytlardanoq bilim sari, oʻrganish sari intilgan. Bugun ham, bundan juda koʻplab zamonlar ilgari ham bilimlarga buyukroq oʻrin tekkan. Ularning joyi – uyning toʻri.

17. Zakovat kishidagi ayb–nuqsonlarni tozalaydi. Bilim esa insonning insoniyatini oshiradi. Dunyo shodligini olmoqchi boʻlgan odamga chora – ezgulik. Ezgulik koʻrmoqchi boʻlgan odamning oʻzi boshqalarga ham ezgulik qilishi lozim. (14–bet).

18. Qoʻling el aro uzun boʻlsa, sen oʻz feʼl – atvoringni ezgu tut. Yigitlik mangu emas, u juda tez kechadi. Tiriklik chirogʻi ham koʻz ochib – yumguncha oʻchadi. Hayot tushdek gap. U yashindek tez kechadi. Tiriklikda jami ezguliklarni yigʻmoq kerak. Ular keyinchalik egulik va kiygulik boʻladi. (15–bet).

19. Ezguliklarning nomi buyuk boʻladi, yomonlar nasibi esa qargʻish va soʻkishdan boshqa narsa boʻlmaydi. (15–bet).

20. Tilaging qanaqa boʻlsa, shundan kelib chiqib oʻzing birini tanlab ol. Keyin oʻkinib yurma. (15–bet).

21. Tajribalarda juda koʻp marta tasdiqlangan shunday hikmat bor: yomonlarning omadi hech qachon kelmaydi. Ularning ishi har vaqt orqaga ketadi. (16–bet).

22. Agar oʻtmishdagi ajdodlarga nazar solgudek boʻlsang, bir holatni kuzatasan: oddiy odam ham, katta martabadagi kishilar ham bilimli va dono boʻlsa, ular el – yurt tadbirini oʻylashgan. Bugun ham ezgu deb atalgan har qanday odam ezgularga bosh boʻladi. (16–bet).

23. Donoga quyidan, poygakdan oʻrin tegsa, oʻsha poygak toʻrdan ham baland sanaladi. Donoga koʻrsatiladigan bunday izzat – ikrom hurmatning sababi, hech shubhasiz bilimdir. (16–bet).

24. Bilimsiz kishini yili–hayvon bilan teng. (16–bet).
25. Bilimsizni aql–idrok egalari ko`zi ko`r odamga qiyoslashadi. (16–bet).
26. Kishi so`zini tili bilan so`zlaydi. So`zlari yaxshi bo`lsa uning yuzi suv oladi, ya'ni obro` qozonadi, e'tibor topadi. (16–17–bet).
27. Telba, nodon kishi o`lsa, ajablanmaslik kerak: aslida ularning tirik chog`lari ham o`limdan farq qilmaydi. Uquvsiz kishining ishi yurishmaydi. (17–bet).
28. Hurmat kishining uquv – idrokidan keladi. Uquv – idroksiz kishi bir hovuch kepak bilan teng. (17–bet).
29. Uquv – idrok kishini pokiza qiladi. Bilim esa yuksaltiradi. Inson zaminda paydo bo`lgan ekan, boshqa mavjudotlardan o`z bilimi bilan farqlanadi. (17–bet).
30. Bilim ipor bilan juda o`xshash, ularning har ikkalasini ham yashirmoq behuda. Iporni yashirsang, hidi bildirib qo`yadi. Bilimni yashirsang, tiling fosh etadi. (18–bet).
31. Bilim va zakovat kishiga qo`yilgan o`ziga xos kishandir. Kishanlangan ot, odatda yovuz va yaramas narsalardan uzoq bo`ladi. Shuningdek, suyakli zo`r otlar ham ko`pincha tushovlangan bo`ladi. Suyukli otning tushovlanishiga sabab – uning ehtiyotlanishi. (18–bet).
32. Zakovat o`zaro ont ichib do`stlashgan kishilarga o`xshasa, bilim yaqin qarindoshga o`xshaydi. (18–bet).
33. Ey zakovatli inson! Qahru g`azabdan yiroqdur. Ezgu yo`lni – bilim yo`lini tanlagin. Agar qahru g`azab ishga tushadigan bo`lsa, barcha tirikligu kechayotgan hayoting bekor. (18–bet).
34. Yigitga og`irlik yarashadi. Qilig`i go`zallik unga chiroy.
35. Yigit degan har ishning uddasidan chiqsa. Butun ishda o`zini qo`lga ola bilganlar barcha ishlarni to`la va tugal ado etishadi. (19–bet).
36. Odam qahrlansa, bilimsiz bo`ladi. Jahl kelsa, aql ketadi. (19–bet).
37. Kishi ezgulik qilishi kerak. Ezguning har bir ishi chiroyli, har bir qadami go`zal. Ezgu aslo qarimaydi. Yomon yuzga kirsa ham ezgu bo`lolmaydi. Uzun yoshli ezgu esa sevinchda yuradi.

38. Olam kezuvchilar yo`l yurib tinmaydi. Baxt – davlat ham bir joyda qo`nim bilmaydi. (23–bet).

39. Tuqqan kun yaxshi – yomon demaydi, barcha narsalarga birday nur sochaveradi. Ammo o`zi kamaymaydi. (26–bet).

40. Ko`pchilikka bosh bo`ladigan kishilar, albatta ezgu bo`lmog`i, ezgulik ziynatlari bilan bezanmog`i shart. Mamlakat osoyishtaligi, el–yurt farovonligi ham boshliqlarning ezgu yoki yaramas ekanligi bilan ko`p jihatdan bog`liq. (27–bet).

41. Ezgulik qimmatbaho gavhar, asl ipak va toza shohi misoli – u doimo baland qadrlanadi, doimiy e'zozda bo`ladi. Yomonlik esa qadrsiz narsaday gap. U doimo oyoq ostida qolib ketaveradi. (28–bet).

42. Ezgu doimo maqtaladi. Uning yaxshi xislatlari yomonlar orasida ham hikoya qilinadi. Ammo ezgular kamtar bo`lgani uchun yomonlar ularning kunini yoritmaydi. Kim ezgulik qilsa uning o`zi ham ezgulik topadi. (28–bet).

43. Ezgulik hozirgi kuning uchun zarar emas. Ammo keyingi kunlar, kelajak uchun uning nafi yanada ko`p. Ezgulik – o`ng, yomonlik – chapdir. (28–bet).

44. Kimki boshqalarni o`z huzuriga chorlar ekan, so`zni dastlab chorlagan kishi boshlamog`i joiz. So`ramasdan oldin so`z boshlash insoniy odatlarga zid bo`lib, u hayvonlar qatoridagi ish bo`lur edi. Telba, tentak, aqli zaif bo`lganlarga boshqalarning savol va qiziqishlarini kutib turmasdan gap boshlab yuboraberadilar. (28–bet).

45. Ko`pchilik oldida mutlaqo og`iz ochmaslik ikki guruhga xos: ulardan biri tabiatan gapirish qobiliyatidan mahrum bo`lganlar, ya'ni soqov, gung kishilar, boshqasi esa bilimsiz kishilar hisoblanadi. Ular bilim etishmasligi tufayligina suhbatga aralasha olmaydi. Bilimi ko`p har narsadan habardor odamlar esa suhbatning guliga aylanadi. (30–bet).

46. Kerak so`zning so`zlanmog`i shart. Chunki tilning zararidan qo`rqib yurilsa, ko`pgina foydali fikrlar ham pinhona qolib ketishi mumkin. (30–bet).

47. Johil qorni to`ygach, uning mashg`uloti ho`kizdek ag`anab yotish va behuda so`zlarni so`zlashdan iborat. Bilimli, donolar esa tanni ijtimoiy mehnat bilan koyitib bilim bilan ovunadilar, buning hisobiga esa jon semiradi. (30–bet).

48. Kishi o`nta so`zni o`ylab bittasini aytmog`i kerak. Tiyilgan, ya`ni aytilmagan so`z tufayli kishining ko`ngli to`q, dili – xotirjam. Noo`rin aytilgan so`z esa kishini ko`nglini xufton qiladi, obro`sini elga beradi. (31–bet).

49. So`zni donodan eshitib nodonlarga qo`llash lozim. Ulug`lardan eshitilgan foydali so`zlarni kichiklarga etkazmoq ham joiz. Hech kim ko`p so`zlab dono bo`lgan emas. Ammo ko`p eshitib, ko`pchilikka bosh bo`lganlar talay. (31–bet).

50. Kam gaplik – donolik yo`lining boshlanishi. Sergap odam vaysaqi bo`lib qoladi. Uning bilim o`rganishga qo`li tegmaydi. Biroq kishi so`zlamas ekan, uning bilimdon yoxud bilimsiz ekanligi ham ma`lum emas. (31–bet).

51. Kishi uchun juda kerakli bo`lgan ikki a`zo bor: biri til, boshqasi yurak. Til so`z uchun, yurak, ko`ngil esa shu so`zdan lazzatlanish uchun berilgan. (31–bet).

52. Ko`p so`zlash – donolik belgisi emas. U – ezmalik alomati.(31–bet).

53. Ne`mat tugal bo`lsa, uni eb bo`lmaydi, deganlaridek, dononing shunday so`zi bor: dononing so`zi bilimsizga ko`zdir. (31–bet).

54. Yiqilgan, pasaygan ko`tariladi, ko`tarilgan esa pasayadi. Yorishgan qorong`ulashadi, yuruvchi tinadi. (32–bet).

55. Otaning ish – amali o`g`ilga singsa, uning xulqida jilvagar bo`ladi. Bolani tergab – nazorat qilish ota–ona yuzini yorug`ligini ta`minlaydi. (32–bet).

56. Nazoratdan tashqaridagi bola bebosh va yaramaslik sari og`adi. Erka bo`lib o`sgan o`g`il qizlar xatti–harakati ota–onaga mung va alam keltiradi. (32–bet).

57. Kimki farog`atli kunni istasa, u fe`l – atvorini sozlashi, to`g`rilik va rostlikni tanlashi lozim. (32–bet).

58. Ko`pchilikka bosh bo`lgan kishining yo`li adolat, fe`li ravon, qilmishi ezgulik bo`lib qolmog`i, yomonlardan uzoq turmog`i shart. Yomonlik ilonga o`xshaydi: u chaqishi, hatto halok etishi ham mumkin. (32–bet).

59. Do`stlikka yaramaydigan shaxsning eng yaramasi –chaqimchi.(32–bet).

60. Barcha so`zni eshit, ammo darrov ishona qolmagin. Uni mantiq tarozisiga solib ko`r.

61. O`z sirlaringni har kimga ochma.

62. Nomusli, uyat - andishali bilan do`st tutin. (33–bet).

63. Biror ishda shoshilma. Sabr va qanoat qil. Yo`l–yo`riqning o`rtasini tut.

64. Tilingni ham, bo`g`zingni ham, ko`zingni ham asra. (33–bet).

65. Xiyonat elidan chetda bo`l.

66. O`zingga loyiq bilmagan ziyonni o`zgalarga ham loyiq bilma. (33–bet).

67. G`azabingni bos, doimo og`irlik qil. Sabr qilish ham jasurlar ishi. (33–bet).

68. Boylikka hirs qo`yish nodonlikdir. O`ylab ko`rilsa boylik sho`rtang suvga o`xshaydi. Suvsagan kishi sho`rtang suvni qanchalik ichgani bilan, uning chanqog`i aslo pasaymaydi, aksincha shu suvdan yanada ko`proq ichgisi kelaveradi. (34–bet).

69. Bu olamda ko`pchilikka bosh bo`lgan kishi bir necha yaroqsiz narsalarga yaqin yurmasligi darkor. Bularni sanayman: haromga qo`shilma, zulm va zo`ravonlik qilma, kishi qonini to`kma, aslo o`ch, kek, gina saqlama. Fasoddan yiroq tur. Bularning barchasi boshliq ishiga rahna soladi. (34–bet).

70. G`ofillik – dushmaning, xushyorlik – do`sting bo`lsin. Shunda kutilmagan nogahoniy bololar yuz bermaydi. Havas kuchaygan chog`ida ham, g`azabing oshgan paytda ham hukm chiqarishdan asran. (934–bet).

71. Olamdagi eng ulug` fazilat ezgu qiliq va go`zal xulqdir. Ikkinchisi – rostlik, uchinchisi – hayo hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi bahtiyor bo`ladi, qut–iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kimning xulqi go`zal bo`lsa, uni barcha xalq sevadi. Xulqi soz bo`lgan odamga doimo to`rdan joy tegadi. (38–bet).

72. Hayo yaramas ishlardan tiyadi. Hayosizlik aslida juda yomon dard, borib turgan balodir. Rostgo`ylik, hayo va xush hulq birlashgan joyda bahtiyorlik bo`ladi. (38–bet).

73. Kishiga naf bermaydiganlar ham uch xil bo`ladi. Ularning dastlabkisi o`jar va fe'li yomon kishilar, keyingisi yolg`on to`qiydiganlar va nihoyat, oxirgisi baxil va pastkash kishilardir. (38–bet).

74. Kimning fe'li yomon bo'lsa, uning omadi kelgan chog'ida ham ishlari chappa bo'lib ketaveradi. (38–bet).

75. Kimda – kim yolg'onchilik bilan mashg'ul bo'lsa, uning omadi kelgan chog'ida ham, ishlari chappa bo'lib ketaveradi. (38–bet).

76. Kimda – kim yolg'onchilik bilan mashg'ul bo'lsa, rostgo'ylar orasiga sig'maydi. (38–bet).

77. Ochko'zlik tubanlik demakdir. Kimda – kim shunday ekan, uning qut–iqboli ketadi, oti qolmaydi. (38–bet).

78. Baxt – iqbol ochiq ko'ngil odamga yarashadi. Agar u kamtar bo'lsa, husn ustiga husn.

79. Xushfe'l kishi naqadar ezgu. U juda yarashiq bo'ladi, ishlari ham rivoj topaveradi. Mutakabbir, gerdaygan kishi yaroqsiz bo'ladi. (39–bet).

80. Bu dunyoda oltin va kumush nihoyatda qimmatli narsa. Ammo o'zini tutgan kishi ulardan ham qadrliroq. Donolar sofdil kishilarni ko'zingga sur, deyishgan. Zakovat, sodiq kishiga jonni fido qilsang ham kamlik qiladi deb uqtiradi. (39–bet).

81. Bilimdon kishining barchasi – nafli. Nodonning ishi yaroqsizgina emas, xavfli hamdir. Qut–donoga yarashiq. Bilim–mardga ziynat.

82. Donolik yo'li bilim bilish, turli sohadagi ta'limotlarni o'rganishdir. Bilimga erishib dono bo'lganlarning elga ham nafi ko'p tegadi. Tug'ilgan paytda uquvi bo'lmasa, uning tilaklari ham amal olmaydi. (41–bet).

83. Agar bola kichiklikdan bilim o'rgansa, uning idroki ham yaxshi bo'ladi, zakovati ortadi. (41–bet).

84. Lekin bilim bilan uquv–idrok bir xil narsa emas. Uquv–idrok kishi miyasiga jo etilgan. Boshning azizligi shundan. (41–bet).

85. Uquv–idrok kishi uchun kishanday gap. U yomon va yaramas ishlarga yaqin yo'latmaydi. (41–bet).

86. Kishi uyga, oddiy emas qorong'u uyga o'xshaydi. Uquv–idrok esa mash'al kabi unga nur sochadi, shu uyni yoritadi, ya'ni kishini ravshanlikka eltadi. Olamdagi turli ezguliklar uquv–idrok tufayli sodir bo'ladi. (41–bet).

87. Bilim esa kishini yuksaltiradi, unga ulug`lik keltiradi. (41–bet).

88. Uquv–idrokning ko`zi o`tkir. U qay ishga kirishsa, uning barcha sir–sanoatlarini o`rganadi.

89. Jami yaramas, bulg`anch ishlar uquv–idrok tufayli poklanadi, tozalanadi. Tugun tushgan har bir ish ham u tufayli echiladi, o`z maromiga etadi.

90. Uquv–idrok qorong`u kechadagi mash'al, ko`r odam uchun ko`z, o`lik tanlarga jon hamda soqov va gung odamlar tilidagi so`z kabidir. (42–bet).

91. Uquv–idrokning xulqi o`ng, ya'ni tugal va etuk, uning so`li–yaramasligi yoxud qusur kamchiligi yo`q. U butun, chin, pok bo`ladi. Kasali bo`lmaydi. Kimda uquv–idrok bo`lsa, uning belgisi mana shu men aytganlardan iborat. (42–bet).

92. Sevuvchi kishining yuziga qaralsa, sevish–sevmasligini bilish mumkin. Ko`z bilan qaralsa, hamma narsada parda, to`siq bo`lishi mumkin, ammo ko`ngil bilan qaralsa, uni hech qanday parda to`sa olmaydi. (43–bet).

93. Yoqtirgan kishining yuzida belgi alomatlar mavjud. Bu narsa ko`z ko`zga tushganida ayon bo`ladi. (43–bet).

94. Odamzod nasli aslida er yuzidagi barcha jonlilar orasida eng ulug`idir. Ammo bu ulug`lik bilim bilangina to`liqlik, mukammallik kasb etadi. Beklik muqaddaslik va poklikni talab etadi. Xushyorlik, sergaklik u qo`ygan talablar qatorining boshida turadi. (45–bet).

95. Beklarning kasalligi – xatosini tuzatuvchi dori – darmon ham aql va bilimdir. Kimda – kim buzuvchi fe'l bo`ladigan bo`lsa, uni zamona o`qi qattiq yarador qiladi. Yaramas qiliqli kishidan omad ham yuz o`giradi. U g`amga giriftor bo`ladi. (45–bet).

96. Andishali va xulqi pokiza kishilar soflikka intiladi. Andishali kishi o`z ko`ngil istaklarini tiyishning uddasidan chiqadi. Andishasiz bo`lsa u nuqsonli, nopokdir. (45–bet).

97. Qaror va chidam el boshlig`iga ko`rk. (45–bet).

98. Idrokli odamgina ish boshi bo`lishga loyiq. Johil va beg`am odamlarning ishdan yiroq turgani ma'qul. Ko`ngilsiz kishining ko`zlaridagi nurdan ham naf yo`q, u atrofni keragicha ko`rmaydi, kuzata olmaydi. (45–bet).

99. Aqlu – idrok chek – chegarasiz ezgulik demakdir. Aqlu–idroki bo`lsagina, bunday odamni dono atash mumkin. (45–bet).

100. Shoshilmoq, engil – elpi ishlarni qilmoqning oqibati dahshatli bo`ladi, bular barcha odamlarning yovidir. Bunday noloyiq odat ko`pchilikka bosh bo`lgan kishilarda bo`lsa, ularning yuzi bo`zga aylanadi, ya'ni qadr–qimmatini bo`lmaydi, obro`si to`kiladi. (45–bet).

101. Shoshilish engil–elpi ishlarga havas, jahldorlik – nodonlar ishi. Shoshib qilingan ishning ohiri baxayr bo`lmaganidek, shoshilib pishirilgan ovqat ham kishini kasal qiladi. (45–46–bet).

102. So`zidan qaytadigan bekka umid tutma: tirikliging bekor ketadi, o`zing o`kinch olasan. Bek sog`, xushyor, sergak bo`lishi lozim. Ular g`ofil bo`lsa, balo yondoshadi. (46–bet).

103. El uchun ikki narsa mustahkam tayanchdir: biri xushyorlik boshqasi adolat. Shu ikkalasi el omonligining ildizidir. (46–bet).

104. Qaysi bek xushyor bo`lsa elini mustahkamlaydi. Yov bo`ynini yanchib uning ustiga balolar yog`diradi. Qaysi bek Elida to`g`ri siyosat yuritsa, elini yashnatadi, uning kunlarini yoritadi. Mana shu ikki narsa tugal bo`lsa el ham mangu turaveradi. (46–bet).

105. Xushyorlik elni orttiradi, g`ofillik bekklikni buzadigan yo`ldir. (46–bet).

106. Sog`–xushyor botirlar g`ofil dushmanning boshini kesadi. Agar yov g`ofillik qilmaganida uni engish oson kechmas edi. (47–bet).

107. Boshliq xushyor bo`lsa, el–yurt balo ofatlarni ko`rmaydi. Bordiyu balo–ofat tutadigan bo`lsa, xushyor boshliq buning tezda chorasini topadi. (47–bet).

108. To`g`rilik va adolatga tayanuvchi bekklik buzilmaydi. Olamda eng yomon illat, nuqson bu boshliqning «yolg`onchi» degan nomni olishidir. (47–bet).

109. Yolg`on gapiruvchi vafosiz bo`ladi. Vafosiz kishi o`z yaqinlariga, do`st o`rtoqlarigagina emas, barcha elga ham yomon ishlar qiladi, balo keltiradi. (47–bet).

110. El boshlig`i yurakli bo`lishi kerak, toki yuraksizlar ham undan yurak olsinlar. Yurakli yuraksizga bosh bo`lsa, yuraksiz o`z fe'lini o`zgartirishga majbur bo`ladi. (48–bet).

111. Boshliq fazilatlaridan yana biri – ochiqko`ngillik, sahiylikdir. Oziqli bahodirlarga jahon boyligi kamaymaydi. Axir uchib yurgan qushlarning rizqi – don–duni ham ozaymaydi–ku! (48–bet).

112. Buzuq fe'l kishini har doim bosib turadigan og`ir yukka o`xshaydi. U kishiga ozob beradi, yoxud bunday odam misoli itdir. Bu it oddiy bo`lmay, quturgan – qopog`on itdir. U o`zi istagan paytda senga tashlanishi mumkin. (48–bet).

113. Tugug yuz, ya'ni qovog`i solqlik, dag`al so`z takabburlikka asoslanadigan qiliq kishi ko`nglini sovutadi, ular odatdagi yo`riqlarni buzadi. (49–bet).

114. Yaroqsiz ishlar, shoshilmoq, engil–elpilik–tuban odamlarga xos bo`lgan odatlar. Ulardan yiroq turish lozim. Tubanlarning yaqinlashib kelishi balo va azoblar alomati. (49–bet).

115. El boshlig`i behuda ishlar bilan ovunmasligi kerak. Agar u behuda ishlar tizginini ushlaydigan bo`lsa, eli buziladi, o`zi bir gadoga aylanadi. (49–bet).

116. Fisqu fasod, qut–saodat dushmani. Fasodchi elni buzuvchidir. Qut, ya'ni baxt iqbol muqaddas bo`lib, u poklikni taqozo etadi. (49–bet).

117. Kerilish, takabburlik keraksiz narsa. Takabburlik to`g`ri yo`ldan ozdiradi. Ko`ngilni kichik tutgan, kamtarlik yo`lida yurgan kishi ulug`likka etadi. (49–bet).

118. G`urur, kibrilik – osig`siz, u ko`ngilni sovutadi. Ko`ngil kamtar tutilsa, kishini ulug`laydi. Bek yumshoq ko`ngil, kamtar bo`lishi kerak. Agar shunday bo`lmasa, sen undan yuzingni teskari bur, umidingni uz. (49–bet).

119. El yurtni boshqarish asosida ikki narsa yotadi: biri adolat ko`rsatish bo`lsa, ikkinchisi ulardan marhamatni ayamaskidir. (49–bet).

120. Elga boshchilik qilish shunday og`irki, undan birovlar oshini esa, birovlar o`z boshini eydi. (50–bet).

121. Vazir el boshlig`ining o`ng qo`lidir. U shubhasiz, juda kerakli kishi bo`ladi. Chunki vazir el yurt ishini hozirligini ko`radigan eng katta kishidir. Vazir tufayli og`ir yuklar engillashadi, ishlar pishiq, puxta bo`ladi. (50–bet).

122. Vazirlik – ulug` ish. Bu ishga ishonchli, etuk va sara, uquv – idrokli, dono va yumshoq ko`ngil, ayni paytda dadil va jur`atli kishilar kerak. (50–bet).

123. Vazir ko`zining to`q bo`lishi uni har xil mol – mulk oldida suqlanishdan asraydi. Ko`zi och odam bor olamni esa ham to`ymaydi. (52–bet).

124. Kishilar orasida eng etugi – nomusli, uyat– andishalilardir. Nomusli odam kishilarning sarasi bo`lishga loyiq. Nomusliga har qanday ishni topshirish xato emas. Nomussiz pastkash bo`ladi, u hech qanday tubanlikdan qaytmaydi. Pastkashdan yiroq tur. Unga ish berma. (52–bet).

125. Nomus - andishasi bo`lmagan odam har qanday pastlikdan qaytmaydi. Baxillik ularning doimiy odati. (52–bet).

126. Uyatsizning yuzi go`shtsiz suyakka o`xshaydi. Go`shti shilib olingan suyak kimga kerak? Hech kimga! Unga hatto itlar ham qayrilib qaramaydi. (52–bet).

127. Uyat kishining yuziga suv beradi. Kishining yuziga suv tegsa, u chiroyli bo`ladi, boshqalarning diqqat e'tiborini tortadi, obro`si ortadi. (52–bet).

128. Vazirning ko`rinishi yoqimli, ishlari to`g`ri, fe'l atvori shularga mos bo`lsa, el–yurt ham undan doimo bahra topadi. Kishining tashqi ko`rinishi uning ichki olamidani, ya'ni ma'naviy boyligidan xabardor qilishi mumkin. (52–bet).

129. Vazirlik ishi hisob – kitoblar bilan bog`liq. Hisob –kitob joyida bo`lmasa, ishlar chala qoladi. Hisob – kitob tufayli ish – amallar oydinlashadi, oyu yilning ishi u tufayli hal qilinadi. (52–bet).

130. Ko`ngil kamtar bo`lsa kishini sevintiradi. Kishini sevintirganlar, esh – og`aynilarning ko`nglini ovuntiradi, vazir ochiq dil, ko`nglida kir saqlamaydigan bo`lmog`i kerak. (53–bet).

131. Boshliq tili va ko`nglini to`g`ri tutadigan bo`lsa, uning xodimlari, qo`l ostidagi ishchilari ham to`g`rilik yo`lini tanlaydi. Boshliqlar zolim bo`lsa, ularning

hayoti afsus bilan o`tadi. Uning qo`l ostidagilar ham ezgu ishlar, ya'ni to`g`rilik yo`lini yo`qotishadi. (54–bet).

132. Vazir yomon bo`lmaguncha, bu dargohga yomonlar yondosha olmaydi. (54–bet).

133. Yomon qaerda bo`lsa, uning yomon, yaramas jo`ralari, do`st– og`aynilari ham o`sha erda bo`ladi. Yomon bilan yaxshi bir – biriga qorishmaydi. To`g`ri bilan egri bir joyda tura olmaydi. (54–bet).

134. Agar notanish odamning kimligini bilmoqni istasang, uning tanish– bilishlarini so`ra, surishtir. Shunda hamma narsa oydinlashadi. (54–bet).

135. Vazir yurt boshlig`iga kengashchi bo`ladi. Kengashchi bir ishni teng qiluvchidir. (54–bet).

136. Yomonga qo`shilma, chunki yomonning yaxshisi ham, baribir yomondir. U oxir oqibatda g`am – alamga giriftor qiladi. (54–bet).

137. Boshliqqa ezgu kishi yaqin bo`lsa, uning ovozi olamga yoyiladi. El– yurt ishlari ham yaxshilanadi. Bordi–yu unga yomon odam yaqinlik qilsa, nomi ham, el–yurt yumushlari ham bulg`anadi.

138. Yaxshi vazir – yurtga boylik, elga – rohat. (54–bet).

139. Yuraksiz bitta qo`rqqoq butun boshli qo`shinga ta'sir o`tkazadi, uni buzadi. Qo`shinning buzilishi alp erlarga ham kuchini ko`rsatadi: ular kamida sarosima va vahimaga berilishi mumkin. (55–bet).

140. O`lim bor narsa: u hammaga keladi, ammo vaqt – soatsiz, bemahal o`lim bo`lmaydi. O`lim unutilsa, yov engiladi. Lashkar boshlig`i uyat – andishali, or– nomusli bo`lsin. Erkak kishi or–nomusini deb yovga otiladi, undan o`chini oladi. Or–nomus tufayli u yov lashkarini parokanda qiladi. (55–bet).

142. Urushda eng avval benomuslar chekinadi, orqaga qarab qochadi, nomusni deb qo`rqqoq ham alplik qiladi. O`kinch ichida qolgan odam o`zini o`ldiradi. (55–bet).

143. Yurakli degani aslida nomusli deyishi bilan barobar. Nomusli odam halok bo`lsa ham jang maydonida urushib halok bo`ladi. (55–bet).

144. Lashkarboshi qilig`i qulay, kamtar, keng ko`ngil, shirin so`z, kishining ko`nglini ovlovchi bo`lgani yaxshi. Bu xususiyatlar uni elga sevdiradi. Ko`ngli muloyim boshqalar dilini ham isitadi. Tili tez, johillardan odamlar o`zlarini chetga olishadi. (55–bet).

145. Qo`shin boshlig`i ko`nglini ulug` tutsa uning boshiga yov tayog`ining uchi tegadi. Ko`ngil g`ururi g`ofillikning ostonasidir. G`ofil esa yo erta sinadi, yoxud bevaqt halok bo`ladi. (55–bet).

146. Askarlar tepasida turgan kishi salobatli va xushchiroy, ayni paytda qattiqqo`l va talabchan bo`lishi shart, bu yomonlarni qo`rqitadi. (55–bet).

147. Yomonlarga g`azab, yaxshilarga hurmat ko`rsatilishi kerak. Ezgular ezgulikdan bahra olishadi. Kishi ezgulikni ko`rib o`z tani jonini ham fido etadi. (56–bet).

148. Lashkar boshlig`i yovga hamla qiladigan bo`lsa, uyqusini haydab, tun – kun xushyor turishi kerak. Qo`shin boshlig`i ayg`oqchi va qorovullarni, soqchi va butun qo`shinni kuzatishi kerak. Yov lashkarini asir tushirish g`alabaning tezlashishini ta'minlaydi. (57–bet).

149. Yovni engishning ikkita asosiy yo`li bor. Ularning biri– yovni chalg`itish, unga hiyla qo`llash. Boshqasi esa – puxtakorlik. (57–bet).

150. Urush ko`rgan oqsoch bahodirlarni oldingi saflarga qo`y. Ular lashkarlarga dalda beradi. Chunki kichik yoshli askarlar shiddatli bo`lishiga qaramay yov yuz tutgudek bo`lsa, o`zlarini yo`qotib qo`yishi sarosimaga tushib qolishi mumkin. (57–bet).

151. Ishonchli kishilarni lashkar saflarining oldi va orqasiga qo`y. O`ng va so`lda ham boshqalari bo`lsin. (957–bet).

152. Alp er cherik ko`rsa, hayajoni ortadi, u yovga qorishib ketsa, boshqalarga navbat ham etmaydi. (57–bet).

153. Kishi g`ofil bo`lsa, yurgan yo`lida ham o`lishi mumkin. G`ofil bo`lmaganlar tilagini topadi. (57–bet).

154. Yovni bir marta tarqatishga ulgursang, u qayta terila olmaydi. Axir yonayotgan o`tning ustiga suv quyib yuborsang, u qayta yonmaydi–ku. (57–bet).

155. Elchi uchun xos boʻlgan xislatlar bilimdonlik, bosiqlik, xotirjamlik, chechanlik va tadbirkorlikdir.

156. Aql–idrok elchining ziynati. Elchi koʻzi toʻq, koʻngli boy boʻlib, feʼlidagi ayb – nuqsonlarni aritmogʻi kerak. Sodiq odam dilga yaqin boʻladi.

157. Koʻzi suq elchilikka noloyiqdir, chunki koʻzi suq odamning erki cheklangan–chegaralangan boʻladi.

158. Koʻzi toʻq abadiy boydir. Ogʻir odam ishda unadi. Suqlik –taʼmagirlikdir. Taʼmagirlik – kishining boshiga bitgan balo. Taʼmagirlikning asl oti pastlik, gadolikdir.

159. Tugal boy–badavlat boʻlishning yoʻli – koʻngil boyligini tutishdir. Agar kishi qul boʻlsa–yu koʻzi toʻqligini saqlasa, u hoqondir.

160. Uyatni bilmagan kishi pastkashlik qiladi. Uyat sobit boʻlsa, maqtaladi, feʼli muloyim boʻlsa, boshqalar muhabbatini qozonadi. (59–bet).

161. Shahmat va nard oʻyinlari elchining fazilatini oshiradi. U bu sanʼatlarni shu darajada oʻzlashtirishi lozimki, toki xariflari undan ustun boʻlmasin. (59–bet).

162. Elchi dadil boʻlsin. Har bir hunardan habardor tursin. Qaysi odam oʻz soʻzlarini soʻzlay boshlasa, undan koʻzda maqsadni aniq angʻlay oladigan boʻlsin. (59–bet).

163. Hozirjavoblik elchining bosh fazilatlaridan biri. (59–bet).

164. Elchi mutlaqo may ichmasligi kerak. Oʻzini tutgan kishi qutga tayanch boʻladi.

165. Bilimli may ichsa bilimsiz boʻladi. Shunday ekan, bilimsiz may ichsa, qanday ahvol yuz berishi mumkinligini tasavvur etishi qiyin emas. (59–bet).

166. Ichimlik aql–idrokka ham, bilimga ham yovdir. U urush va janjallarning asosi. (59–bet).

167. Ne–ne dono va aql–idrokli kishilar ham may ichganidan soʻng tubanlik qilishi, nojoʻyalik sari yuz berishi mumkin. Ne–ne andishali, feʼli soz kishilar ham boshlarini mayga suqqanlaridan soʻng oʻz ishlarini buzishgan. (60–bet).

168. Uyat – andisha, zakovat, aql–idrok singari qanchadan–qancha yaxshi fazilatlar nopoklarda mayga qo`shilib ketadi. Mana shu yaramas may tufayli ko`plab yaxshi odamlar ham telba, tentak degan nom olishadi. (60–bet).

169. Elchining aqli keng, qo`li ochiq, tili shirin bo`lishi lozim. So`zga chechanlik – kirishimlilik alomati. So`zi go`zalning ishi ham yurishadi. Xotira baquvvatligi – echiga ziynat. (60–bet).

170. Elchi shirin so`z bo`lmog`i shart. Shirin so`zga hamma – katta ham, kichik ham eriydi. Elchining ishi so`z bilan bitadi. So`zi yaxshi bo`lsa, u tilagiga etadi. Agar elig shunday odamni topsa, elchilik martabasini unga bersin. Elchi yiroqni yaqin, yaqinni mehribon qiluvchidir. (60–bet).

171. Kotiblar har qanday yashirin so`zlarni ham eshitishga loyiq odamlardir. Kotiblar sirni yashirishning uddasidan chiqmas ekan, siri fosh bo`lgan odamning joni o`rtanadi. Sirni aytgandan keyin ularning injiqliklarini ham ko`tarish lozim. (60–bet).

172. Sirni eshitishga qobil bo`lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi vazir, boshqasi kotib. (60–bet).

173. So`zni hamisha sir saqlash joiz. Saqlanmagan so`z o`limga yondoshtiradi. (60–bet).

174. Kishining og`zi o`raga qiyos. So`zlar misoli erga sochilgan urug` doni. Agar og`izdan chiqqudek bo`lsa, ularni bittalab terib olish mumkin emas. El – yurt eshitganidan keyin bu so`zlarni pardalab bo`lmaydi. (60–bet).

175. Shirin va ezgu so`zlar oqib turgan zilol suvga o`xshaydi. Zilol suv qaerga oqib borsa, u erda anvoyi chechaklar unib chiqadi. (61–bet).

176. Ila donishmandi shunday degan xabar berishning eng qulay usuli yozuvdir. Chunki barcha ezgu so`zlar yozuvda jamlangan bo`ladi. Xotirada saqlanadigan ko`plab ezgu so`zlar sababi ham yozuv. (61–bet).

177. Yozuv bo`lmasa, oddiy so`zlarga hamma ham ishonavermaydi. Xususan, boshqalarga, uzoq ellarga xabarlash extiyoji tug`ilganida, bu ishni biror mulozim yozuvsiz eplay olmaydi. (61–bet).

178. Mamlakat ishiga nafi eng ko`p tegadigan toifa uch xildir: birinchisi, bilimli, donishmand kishilar, turli kasb–hunar egalari; ikkinchisi – botir, sheryuraklar. Ular bo`ri–yovga qarshi kurash paytida asqotadi; nihoyat, uchinchisi so`zamol kotiblarni tashkil etadi. (61–bet).

179. Ko`zi to`q, samimiyatli, ta'ma dardi yo`q kishilar kotiblik uchun yarashadi. Chunki ko`zi to`qlar ta'ma dardidan xalos kishilardir. Ta'madan xalos bo`lgan kishilar esa ko`zini to`q tutadi, birovlar molidan umid tutmaydi. (62–bet).

180. Ta'magir dunyo molining quli. (62–bet).

181. Kotib suq va ta'magir bo`lsa, ishini buzadi. O`z niyat–maqsadini ochib berolmaydi. Kumush va oltinga, ya'ni mol–mulk hamda boylikka mahliyo bo`lib, xat egasining boshiga kulfat va balolar yog`diradi. (62–bet).

182. Ichkilik ichish kotib uchun qusur. Kotib ichkilik ichish bilan mashg`ul bo`lsa, qo`lidan xato o`tadi. Xatolar esa to`g`ri fikrlash yo`lidan chetga chiqaradi, ozdiradi. (62–bet).

183. Kishilar orasida eng sara va keraklisi ikki toifadir:

Birisi – kotibdir, bexato xati,

Biri elchi erur – shirin suhbat. (62–bet).

184. Xodimning yaxshisi tunni–kunga ulaydi, ya'ni kechasi ham, kunduzi ham o`z qilayotgan xizmatini o`ylaydi. Shuning uchun ham ularning haqi o`z paytida to`lanishi lozim. (62–bet).

185. Kishilikning, odamiylikning asosi–muruvvat. Muruvvat chin insoniylik yo`lidir. Xizmat ahli o`z mehnati natijasidan umidvor turadi. Umidini topmagan xodim ko`ngli sinadi. (63–bet).

186. Naf keltiruvchi kishiga xizmatiga loyiq ravishda tortiqlar berish kerak. Xizmatiga loyiq taqdir ko`rgan xodimning boshi ko`kka etadi. Inson degani, axir, hayvon tengi emas. Ana shuni bilib, unga amal qilinsa, barcha ish ko`ngildagiday bo`ladi. Chunki inson hatto yioqini ham avval qornini to`ydirib, keyin uni ishga soladi. (63–bet).

187. Shirin so`z ayalmas ekan, xodim ham o`z jonini fido qilaveradi. (63–bet).

188. Odamzod manfaat topadigan bo`lsa, ezgulikka qul bo`ladi, boshqalar g`am–tashvishini ham o`z zimmasiga oladi. (63–bet).

189. Elda «qul», «gado» degan nomlar bor ekan, bu el qut–barakali bo`la olmaydi. (63–bet).

190. Boshqalar mehnatining qadriga etish insoniylikning eng yirik alomatidir. (63–bet).

191. Xizmat qiluvchilar ikki guruhga bo`linadi: ularning biri ozod, erkin va boshqa birlari hojat ahli – quldir. Qul – erksiz xizmatkor. Ular ko`ngil ishi bilan qiziqmaydi, shuning uchun ham dangasa va yalqov bo`ladi. Bu toifaning mukofoti – tanbeh. (64–bet).

192. Ozod va erkin kishilarni nafs qullari bilan yonma–yon tutmaslik kerak. Ularning o`zligini yodda saqlash lozim. (64–bet).

193. Xodim boyisa, el boshlig`ining shuhrati ham ortadi. Uning oti olamga yoyiladi. Nomi mangu qoladi. (64–bet).

194. Mamlakatni qo`riqlayotgan xodim qo`lida qilich tutib jangga kirganida ham o`z joni ko`ziga ko`rinmaydi. U yov boshini yanchadi. Bular hech shubhasiz naflidir. Naf berganni esa asrash, avaylash kerak. (64–bet).

195. Naf keltiruvchi kishi o`g`ildan ham yaqin bo`lishi mumkin. Behuda ishlar bilan band bo`ladigan o`g`il esa yovdan ham yomon. (64–bet).

196. Aslida butun qimirlagan jon naf va ezgulikni o`ylab harakatlanadi. Shu nafi bo`lmaganida edi, ovchi ham uyidan chiqmas edi. (64–bet).

197. El boshlig`i uchun askar go`yo qushning qanoti va pati misolidir. Demak, el boshlig`i ham askarsiz hech narsaga qurbi etmaydi. Uning kuchi askar bilan. Askar tufayli ne–ne berk tugunlar ham echiladi. (64–bet).

198. San'at–hunar kishiga chiroy. Turli–tuman hunarlarni o`rganmaslik – tubanlik belgisidir. San'at – hunar oqqushga o`xshaydi. Humoqush soyasi tushgan odam davlat va saodatga erishganiday, hunar va san'at egalari ham bahtiyor bo`ladi. (64–bet).

199. El boshlig`ining kuchi xalq bilan. Shuning uchun boshliq boy emas, aksincha, xalq to`q bo`lsin. (65–bet).

200. Olam egalarining qo`li ochiq bo`lsa, uying to`ri doim ularniki. Baxillik bilan elni boshqarib bo`lmaydi. Baxil va saxiy bir–biriga qarama–qarshidir. (65–bet).

201. El boshlig`i uchun baxillik–nuqson. Baxil har erda o`ziga nafrat uyg`otadi. Ko`pchilikni boshqarishning, idora qilishning ikki usuli bor: ularning biri–qilich, boshqasi–saxovat. (65–bet).

202. Dunyo taomilida shunday qonuniyat mavjud: baxilga haqorat, saxiyga olqish tegadi. (65–bet).

203. Dunyo–davlat kelsa hamma orzular ushaladi. Odam dong taratadi, oti olamga yoyiladi. Ammo davlat ketsa, mag`rur boshlar ham erga egiladi. Xudi shuning uchun ham mol–mulkka ko`ngil qo`yish aqllilar ishi emas. (66–bet).

204. Aslida zulmni yuzaga keltiruvchi sabablar uchta bo`ladi: birinchisi, boshliq g`ofil bo`lsa, aysh–ishratlarga berilsa; ikkinchisi u zaif bo`lsa; nihoyat boshliq suq, ochko`z bo`lsa, el bag`rini eydi, uning boshiga balolar yog`diradi. (67–bet).

205. Kishi qanchalik urinmasin, yolg`iz o`zi, boshqalarning ko`magisiz ishlarini avj oldirolmaydi. Yolg`iz kishi ishning ichinigina ko`radi. Uning tashqi tomoni e'tibordan chetda qoladi. (67–bet).

206. Donolarning shunday gapi bor: el ishida ko`makchilar ko`p bo`lsa, ishlar avj oladi, rohat ortib, mashaqqat kamayadi. (67–bet).

207. Kishining qarindosh–urug`i bo`lgani yaxshi. Kimning qarindosh–urug`i bo`lmasa, u do`stlarni ko`paytirsin.

208. Agar do`st–og`aynilar bir–birlari bilan birlashib yursa, ular har qanday yovga ham bas kela oladi. (69–bet).

209. Dunyoda haqiqiy kishi deb ataladigan ikkita toifa bor: ularning biri o`rgatuvchi, bo`lagi o`rganuvchi. (69–bet).

210. Tojik donishmandlarining juda yaxshi naqllari bor: boshliq ezgu bo`lsa, butun el qut–saodat topadi. Oddiy odamning nafi bir kishiga tegadi. Boshliq nafi esa el–yurt uchun bo`ladi. (70–bet).

211. Odam tirik bo`lsa, albatta tilagini topadi. Tiriklik tilak topish uchun bir tirgak. (72–bet).

212. Foyda–zarar ko`rishga yoxud yaxshi–yomon bo`lishga insonning o`zi sabab. (73–bet).

213. Oila qurish, o`g`il–qizlarni o`stirish lozim. Farzandsiz desalar, bu juda og`ir gap. Farzandsiz kishilar tilda ham, dilda ham o`kinishadi. Otadan keyin kishining farzandlari qolsa, uni tirik deb hisobla. Farzandsiz kishi olamdan o`tadigan bo`lsa, uning urug`i quriydi, nomi ham o`chib ketadi. (73–bet).

214. Donolar boshlig`i bekorga aytmagan: farzandni tarbiyalash tadbiri ko`zdan ketmas sharpadir. (73–bet).

215. Oila qurgan kishi kemaning ichiga tushgan odamga qiyos: kema dengiz o`rtasiga yo`l oladi. O`g`il qizning tug`ilishi bu kemani boshqarishni qiyinlashtiradi. Endi kemachidan kuch va mahorat talab etiladi. (73–bet).

216. –Ko`pchilikka naf bermaydigan kishi tirik emas. Kimning do`sti ko`p bo`lsa, uning nomi yoyiladi. Barcha ishlari o`z vaqtida ado etiladi. Do`stlar kishining yaxshi tomonini oshiradi, ayb–nuqsonlarini yashiradi. (74–bet).

217. Yovning bo`lishi chiroy emas. Yovning qanchalik kichik yoki kam sonli bo`lsa ham, sen uni ulug` deb bilgin, ey ko`ngli o`ktam inson. Hatto chivin ham fil uchun arzimas dushman emas! U chaqadigan bo`lsa, fildek jonivor ham sakrab ketadi. (74–bet).

218. Kimning xislat – fazilati ko`p bo`lsa, uning yovi ham bo`ladi. Kingaki yovlar ko`plashib yondoshar ekan, o`sha kishining xislat va fazilatlarini ko`p deb o`ylayver. (74–bet).

219. El–yurt orasida yursa–yu, tilini tiya olsa, o`sha odam mard bo`la oladi. Dag`alga muloyim, achchiq so`zga shirin javob bera olish ham mardlik. (74–bet).

220. Kishilar qo`lidan yukini olib, vafo yo`lidan yurish jasurlarga xos. Ko`nglida kek ginalarni chiqarib, dilida borini tiliga chiqara olsa, qanday ko`rkam bo`ladi.

221. Sen rohat, orzu–ne'matlardan bebahrasan. Er–suv, ot–asbob, o`g`iz–qizlaring ham yo`q. Demak, kishilar bilan birga bo`lish uchun senda kuch–qudrat ham mavjud emas. (75–bet).

222. Necha yillar urinib orttirgan narsang–zohidlik. Ammo sabru qanoatni parda qilib olgan har bir nodon ham bu nomga erisha oladi–ku! (75–bet).

223. Elig ham ko`p ezguliklar egasi. Xalqiga mehribon, elida ardoqli odam. Odil siyosatli kishi, shubhasiz, el–yurt uchun qut, saodatdir. Odil siyosat poydevorga o`xshaydi. Poydevor mustahkam bo`lmasa, uy ham baland ko`tarilmaydi. (75–bet).

224. Kishi ezgu bo`lsa, xulq–atvorini ezgu tutsa, o`zi baxtga sazovor bo`ladi. Ezgu hech erda o`z odatlarini tashlamaydi. Unga qaytadigan evaz ham – ezgulik. (77–bet).

225. Sevgan kishi nima deydi, eshitgin: sevganga sevilganning aybi fazilatning boshi bo`lib ko`rinadi. Sevishning nishoni, shubhasiz, shuki, sevganning aybi fazilat bo`lib ko`rinadi, ey shuhratli. (77–bet).

226. Tiriklik oxiri – o`lim. U fursat poylab turadi. Undan omon qolguday jon yo`q. (77–bet).

227. Tiriklik har ezgu ishga asos. Uni elga berma. Dunyo o`tkinchi narsa. U bergan narsalarini yana qaytarib oladi. O`lim hech kimni farqlab o`tirmaydi: unga shoh ham, gado ham barobar. (77–bet).

228. Dunyo ko`lankaga o`xshaydi: quvsang, oldingga tushib qochib ketaveradi, qochsang, senga yopishadi, izingdan ergashib keladi. Kimda–kim unga ko`ngil berguday bo`lsa, hayoti zoe bo`ladi. (77–bet).

229. Bu dunyodagi eng yirik yov–nafsing. Uning tuzog`i doimo yoyiq. Nafsdan jon uchun etishadigan narsa – mashaqqat. Nafsi buzuqning davosini o`limdan boshqa hech narsa topolmaydi. Shu nafs goh yugurtirib, goh eldiradi, goh kuldirib, goh yig`latadi. (77–bet).

230. Ko`zni suq qiladigan ham shu nafs. U tufayli kishi goh to`q, goh och bo`ladi. Bir orzuni topsa, boshqasi qoladi. Nafs semirsa, oxir–oqibatda egasini yiqitadi. (77–bet).

231. Kishining nafsi ovchi itga qiyos: agar u semirib ketsa, egasining haqini ham tanimaydi. Yoki kishi nafsi yosh bolaga o`xshaydi: qorni to`ysa bas, chopib ketaveradi, sen esa uning orqasidan izlab yuraverasan. (77–bet).

232. Bo`g`iz totig`i – qorin to`ydirish. Qorin to`ysa, arpa ham, holva ham bir xil – ikkalasi ham ortib qolaveradi. Shakar, holva egan lof uradi, maqtanadi, ammo bir marta yotib tursa tamom: yana ochiqib qoladi. (78–bet).

233. Nafs–ko`rinmas yov. Bu yovni yo`qotish kerak. O`tgan tiriklik qaytmaydi. (78–bet).

234. Agar nafsim meni asir etsa, kim asrab qoladi. Nafsdan ham dahshatli yov–boylik. Boylikning ham tuzog`i yoyiq. (78–bet).

235. Ko`ngil chopmagan ishni qilish – xatar. (78–bet).

236. Barcha so`zni boshqalar bilan kengash, lekin ko`ngil istamas ekan, o`zingni chetga ol. Hammadan ham sen uchun bag`irdosh – sening o`zing. O`z ko`ngling ma`qullamadimi, bu ishni qo`ygin, so`zni to`xtatgin. Ko`ngil ma`qullamagan ishda naf bo`lmaydi. (79–bet).

237. Nimaniki topgan bo`lsam, o`sha kifoya. Ortig`i endi keraksiz. Aslida butun dunyo borlig`i bir siqim. Boriga qanoat qila bilish ham baxt. (80–bet).

238. –So`zni so`zlamasang, senga qul bo`ladi. Agar og`izdan chiqarsang, u seni qul qiladi. Shuning uchun so`z aytishda shoshmaslik kerak. Shoshib aytilgan so`z so`nggi pushaymon. (82–bet).

239. Kishilarga nafli bo`lgin, ey dono, kishilarga naf keltirgan kishini haqiqiy er deb atash kerak. (83–bet).

240. Naf keltirmaydigan odam tirik kishilar orasidagi o`likdir. (83–bet).

241. Narsa ulashish–sahiylik emas. Sahiylik joni va borini fido eta bilishdir. (83–bet).

242. Agar bu dunyo ezguliklarini olib kishining quti yuksaladigan bo`lsa, ular yovuz emas. Bu dunyo narsasini esa, xalqqa bersa, shular tufayli yuzini yorug` qilsa, ularni yovuz deb bo`lmaydi. (85–bet).

243. Moli bo`lsa, kishi aql, bilim o`rganadi, barcha ezgulikka qo`l cho`zadi. Bu mol bilan kishi tilak tilasa, mol–dunyosi bir yo`lak, ya'ni vosita bo`lib yuqoriga ko`tariladi. (85–bet).

244. Elni yashnatish, uni boshqarish, idora qilishga, shuningdek, olamni obod qilishga beklar bunyod bo`lgan. Bu ishlar urf–odat, rasmu–qoidalar bilan amalga oshadi. Shundagina beklar qo`l uzatadi, uquv–idrokni ishga solib, bilim yuritadi. (86–bet).

245. «Olamni tutish uchun kishi uquv–idrokli bo`lishi, xalqni idora qilish uchun aqlli va yurakli bo`lishi kerak. Shundagina boshliqlarning kuchi ortadi, yov bo`ynini yanchib, undan o`chini oladi». (86–bet).

246. Kishi qaysi ishda bo`lmasin, unga munosib xatti–harakatlar qilsa, sevinchga sazovor bo`ladi. (87–bet).

247. Xizmatda turadigan odam ehtiyot bo`lish tilini ham, ko`zini ham asrash kerak. U ko`ngil va tilni rost tutsin, so`zlarini pishiq qilsin. (87–bet).

248. Barcha ishlar xizmat–yumush bilan ado etiladi. Ezgu kishilar ham xizmat chog`ida ayon bo`ladi. Shuning uchun ezgulikni istagan odam xizmat qilishi, mehnat bilan band bo`lishi kerak. Qilingan mehnat kishi yuzini yoritadi. Davlat boshlig`iga yaqin bo`lgan odam qulog`ini sog`, ko`zini o`tkir tutsin. (87–bet).

249. Xulq–atvorlaringni me'yorida tutishga urin. Sendan so`z so`ralsa, so`zning to`g`ri–chinini ravon qil. Yaramas, yovuzlarga zinhor yondoshma. (88–bet).

250. Kimki o`z xizmatiga loyiq ish tutsa, uning javobiga keladigan narsa–maqtov va olqish. (88–bet).

251. Aql–zakovati bo`lmagan kishidan bilim ham yiroq ketadi. Bilimsiz kishi elni buzadi. Zakovatsiz kishi ulug`likka erishsa, dastlab egasining boshini eydi. (88–bet).

252. Xodim boshqalar uchun mehribon bo`lsagina, u uchun kishining ichi achishsa arziydi. (88–bet).

253. El begi bir qarasang, qut–saodatga o`xshaydi. Uning qo`li har qaerga etadi. Bir qarasang, uning o`t–olovdan farqi qolmaydi. U seni yondiradi, balolarga giriftor qiladi. (88–bet).

254. Beklar seni qanchalik qadrlashmasin, ehtiyot bo`l. Ular goho o`t bo`ladi, goho suv. Ba'zan kuldiradi, ba'zan yig`latadi. Uch narsaga qo`shnilik qilmagin: biri tez oqar katta suv, ikkinchisi yonib turgan olov, uchinchisi esa beklardir. (88–bet).

255. Beklar arslonga o`xshaydi: maqtalsa, so`zi yumshaydi, g`azabi kelsa tomir teshadi, qon so`radi. (88–bet).

256. Uchta ish borki, ulardan uzoq turganlarning yuzi qizil bo`ladi: biri qattqlik va xasislik, uni chetga ot. Yana biri yolg`on–yashiqqlarga aralashma, oxirgisi–suqlik qilma. Bu uchala ishning ham tubi yo`qlikdir. Ular kishini xarob qiladi. (88–bet).

257. Seni hurmat qilganlarni e'zozla. Gerdayma, qo`lingni qo`ltiqlaring orasiga olib yurishdan saqlan. (89–bet).

258. Boshqalarning oldida yonboshlab yotma. Yomon fe'llik qilib, uning so`ngida ezgulikni kutmagin. O`zingdan ulug`larning gapini ko`tarib yurma. (89–bet).

259. Uch narsadan chetda tur, ulardan asranmasang, muqarrar ravishda zarar qiladi. Birisi – kattalar gapini sir tutmoq. So`zni ham kishi o`z tani–jonini saqlagandek asrashi lozim. Ikkinchisi, shu so`zlarni kishi ko`cha–ko`ylarda, yoyib yurmasin. Uchinchisi – yomon–yaramaslarga aralashishdan tiyilmoq. Shu ishdan qay birini qiladigan bo`lsa, kishining boshi ketadi. (89–bet).

260. To`rda o`tirgan bo`lsang ham, ichkariga boshqalar kirib kelsa o`rningdan turib kutib ol. Sendan fikr so`ralsa, so`zni cho`zma. (89–bet).

261. Seni eshitsalar, so`zingda davom et, so`zingni bo`lishsa, o`sha erda to`xtat. (89–bet).

262. Mehmonga taklif qilinsang, oshni odob bilan e. Birovning oldidagi ovqatga qo`l cho`zma. O`zingga yaqin turgan joydan ol. Pichoq o`ynatmagin. Qo`lingga suyak olib, kemirib o`tirma. Boshqalarning osh–ovqatlarini tatib ko`rishdan asranish lozim. O`zgalarni zo`rlab–qistash yaramaydi. (89–bet).

263. Ayollarga o`xshab bemalol emagin, ammo shoshilish ham zarar. Ayollardek seriltifot bo`lish ortiqcha. Bularga mulohaza yurit. (89–bet).

264. Qanchalik to`q bo`lsang ham, taklif qilingandan keyin ovqatdan eyish lozim. Bu sening qadringni oshiradi. Qaysi bir ishni qilishga bel bog`lagan bo`lsang, unga astoydil yopish. (89–bet).

265. –Saroy ahli uch toifaga bo`linadi, –dedi O`gdulmish. Birinchisi –sendan ulug`lar. Ularni ulug`lab, so`zlarini qadrla. Bulardan bo`lagi sening tengdoshlaring. Ularni o`zingdan uzoqlashtirsang yov, yaqinlashtirsang qadrdon do`st bo`lishadi. Oxirgisi –sendan kichiklar. Barcha achchiq–chuchuk ular bilan bo`ladi. Ular ishini o`rinlatsa, taqdirlash, gunoh qilsa, tartibga chaqirish lozim.

266. Do`st – o`rtoqlarning ko`pi yaxshi. Ularni ko`paytirish – yaxshi hislat. Notanish kishi yov emas. Yovi bor kishida sevinch bo`lmaydi. Yovning soni kam bo`lsa ham zarari ko`p, ezgu kishilarning birortasi yovdan foyda, naf keladi deb aytgan emas.

267. Qo`ldoshlaring qaysi yo`lni tutsa, sen ham o`shanday qilgin, toki ular bundan sevinch topishsin. O`zingga tenglarni yaqin tut. Tengdosh – tengdosh uchun – ko`rk. Yomon fe'l – atvor egalarini zinhor yaqin tutmagin. Ulardan ming–ming zarar bor. (90–bet).

268. Do`stlik, yaqinlik ikki xil bo`ladi: biri ezgu niyatlar tufayli yuzaga kelsa, boshqa biri do`stlik shaxsiy manfaatlarni deb bo`ladi. O`z nafini o`ylab qilingan do`stlikka juda tez soya tushadi. (91–bet).

269. Do`stni foyda–zarar ichida sinash kerak. Sen do`st bo`lish uchun oyoq qo`ysang, o`zingni mahkam tut. Do`stning haqiqiy dilini bilmoqchi bo`lsang, sinash uchun unga tilingni g`azab qilib yoki yuzingni tugib, ya'ni qovog`ingni solib ko`r. (91–bet).

270. Do`stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo`lsang, uning eng yaxshi ko`rgan narsasini so`ra. Shunda hamma narsa ayon bo`ladi. Shu ikkalasidan keyin ham qovog`ini solmasa, bunday do`stni boshga ko`tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak. (91–bet).

271. G`iybatchi kishilarga yaqin turma. G`iybatchilarning tilida o`'t bor. Bu o`'t doimo yonib, lovullab turadi. Unga yaqinlashsang, kuyishing aniq. G`iybatdan fasod yoyiladi. G`iybatchining tili kesilishga mahkum. (91–bet).

272. Yaqinlarim ko`paysin degan kishi tuzu nonni mo`l, yuzini ochiq tutadi, xasislik va tundlik qilmaydi. Oldingi ikki yaxshi qiliq kishi ko`nglini isitadi. Yaxshi – yomon damlarda uning ishlari amal olaveradi.

273. «Bor so`zni so`z sanab tebranmasin til,
Ko`rib, o`ylab so`zla, keragini bil.
Uquvlini ko`rdim: oz–soz so`zladi,
Talay so`zladim deb o`kindi ko`p yil» (93–bet).

274. «Agar uzun qilsang xalq uzra qo`lni,
Kichik tutsang nafli ko`ngilni, tilni.
O`zingni unutma, yo`riq buzmagin,
Qut keladi tutsang shu sog`lom yo`l» (99–bet).

275. Nima der, eshitgin, dono oqsoqol,
Be'mani atamay, buni uqib ol.
Kishi qirqqa kirib, mijoz bilmasa,
U yilqi sonidir necha so`zlasa.

276. Nazar solsang yaxshi so`z degan tabib,
«Ovqatni oz egan yuradi kulib»
Sog`liq tilasang gar bedard, bekasal,
Oz degan dorini egin har mahal,
Ko`rayin desang gar sen uzoq umr,
Tez–tez til go`shtini qilgin tanovul. (103–bet).

277. Bilimi daryo kabi keng bo`lgan kishi shunday degan: «Kishi qarilikning ishini yigitlikda qilishi lozim. Odam qarisa, kuch ketadi, o`ylagan ishlarini bajarish uchun umri ham etmaydi» (104–bet).

278. O`limni hech qachon unutmaslik kerak. U pistirmadan chiqqanday paydo bo`ladi. Dono va sergak kishi: «O`limni unutma, u balo keltiradi» degan. (105–bet).

279. «Vaqtidan o`tkazma ishni hech qachon,
Ishdan yiroq tushding vaqtni bergan on.
Bor ishning munosib, tengi bo`ladi,
Munosib, teng bilan har nima eson». (107–bet).
280. Salomlashish qoidasida ulug`lar kichikka salom berishsa, etuk ish bo`ladi. Kichiklar kamtarlik yo`lini tutib, ulug`lar so`zini olsa, o`zini ulug`lik sari eltadi. (111–bet).
281. Begi bo`lsa butun, desa so`z chini,
So`zidan kim qaytsa, mard dema uni.
Gapirgan gapidan qaytmadi mardlar,
So`zidan qaytganlar ayolning tengi. (111–bet).
282. Agar qilgan esang o`zing ezgulik,
Evazi keladi senga mangulik.
Yomon kechgan esa tiriklik agar,
O`kinch bilan yig`la o`limga qadar. (113–bet).
283. Bilimdon kishi shunday degan: «Yo`lning to`g`risi – havas – nafsini engish. Shunda ko`ngil egriligi barham topadi». (115–bet).
284. «Yomonga qorishma, yiroq tut uni,
Yoqimsiz bo`ladi yomonning uni.
Kim etsa yomonlik, mashaqqati bor,
Bu ezgu baxt topar haqiqat kuni». (115–bet).
285. «Qaysi elning begi tutsa ezguni,
O`sha el boshida tug`adi kuni.
Bekka boylik bo`lur eli boyligi,
Tilasang buni qil, tilasang uni». (115–116–bet).
286. Ishonch olgan kishi oyna misoli,
Qarasa, ko`rinur o`zin jamoli.
Boqib tursa unga ko`rinar keyin,
Jamiki qusurdan bo`ladi xoli. (117–bet).
287. «Butun dardga davo bu kengash ishi,

Kengashmoq kerakdir, yaqinga kengash,
Kengashda kelishar turli–tuman ish». (117–bet).

288. Nima ish qilaring kishiga kengash,
Kengashsiz kishini yaqin tutma esh,
Nima ishni qilsang, kengash, so`ngra qil,
Kengashda bo`ladi muroding hosil». (118–bet).

289. Kishilar aro chin kishi ul bo`lar,
To undan kishilar nafini olar.
Nafi yo`q kishilar kishiga zarar,
Nafi bor kishidan el–qutga to`lar. (119–bet).

290. Kishi ezgu niyat qilsa, ko`nglida faqat yaxshiliklarni o`ylasa, uning olamda qiladigan ishi ham o`z tilagidek bo`laveradi. Ezgulik ezgu niyatli kishilargagina xos. Yaxshi niyat egasi shu niyat–maqsadlari barobarida nafini ham oladi. (119–120–bet).

291. Kishi oltin va kumushlarni ko`rmasa hech gap emas, ammo ularni ko`rgandan keyin juda ko`p noloyiq ishlarni qilishi mumkin. (120–bet).

292. Olamdagi maqtov – olqishlarning son–sanog`i yo`q. Ammo ularning eng ko`pi vafoli kishilarga tegishli. (121–bet).

293. Kimki bo`lsa asli otadan toza,
Eliga naf berar u beandoza. (121–bet).

294. Rost so`z dag`al bo`ladi, u ko`ngilga og`ir botadi. Ammo bunday haqiqat ko`ngilga joylansa, kishiga naf beradi. (121–bet).

295. Odamgarchilikka odamgarchilik bilan javob qaytarish mard kishilarga xos odat. Haqiqiy insoniylikning yo`li – shu! Kishilarga har doim kishilik qilgin, odamlar orasida ezgu degan nomni orttira bil. (122–bet).

296. Kishilar orasida eng yaxshisi – vafoli kishidir. Bunday kishi el ichida sara, ishlari tugal va etuk bo`ladi. (122–bet).

297. «Kishi asliga ko`r, qilig`i nishon,
Bo`lar shu qilig`i misol begumon.
Kishi asli sofmi – qilig`i ravon,

Yomonning qilg`i nishondir, ishon». (123–bet).

298. Kishi ko`ngli go`shtdek, uni hid buzar,
Go`shtingni asra, ey fe'li misli zar.
Chaquv tinglamasa ham garchi odam,
Chaqimchi so`zini tinglar qaysi dam». (125–bet).

299. Kishi ta'bi to`rt xil: tugal turgan yov,
Biri kuldiradi, g`am berar birov.
Biri shoshsa, biri osoyish tilar,
Biri kulsa, biri yig`isin qilar.
Sevindim deganda alam keltirar,
G`amim ko`p deganda, sevinch kuldirar. (125–bet).

300. «Bor so`zni tinglagin, keragini ol,
Nokerak so`zlarni chegirgin darhol.
So`zin eshit, so`ra yolg`on–chinini,
Chinin ol, yo`qotgin bor yolg`onini.
Yolg`onchi kishidan buzilar jahon,
Chin aytar kishini yaqin tut har on». (125–bet).

301. El orasida doimo obro`ni saqlash uchun to`rt narsa kerak: biri – tili to`g`ri, so`zi chin, butun bo`lsin. Ikkinchisi, el–yurt uchun qonun–qoidalar mutlaqo muvofiq tuzilsin. Ochiq ko`ngil, sahovat – uchinchi xislat. El–elot boshliqdan doimo muruvvat ko`rishsin. Nihoyat to`rtinchi xislat, boshliqning jasur va botir bo`lishidir, toki yov–dushmanlar bo`ynini egib qolsin. (126–bet).

302. Agar ezgu o`lsa, tirikdir oti,
Ki xarchand joy bo`ldi unga er qati,
Tiriglik tilama, ezgu ot tila,
Oting ezgu bo`lsa, tiriksan to`la. (126–bet).

303. Ko`rgan tushni bilimsizlarga aytmaslik kerak. Shuningdek, tushga kechasi–qorong`u tushgandan keyin ham ta'bir so`ralmaydi. Kechasi ko`rilgan tushga ta'bir kunduzgisidan tamomila boshqa bo`ladi. (128–bet).

304. «Ta'bir qilma tushni bilib–bilmayin,

Ta'birni ne desa, bo`lar shundayin.
Alam ko`rsa tushda, javobi–sevinch,
Sevinch ko`rsa, qayg`u kelar tundayin». (129–bet).

305. Donolar so`zidir har ishning ko`zi:
«Idishdagi suvni kim ichsa yarim,
Tiriklik tugadi, yarimi–berim.
Agar suvni ichsa, oxirgacha to,
Tiriklik tugadi, qazildi go`rim». (131–bet).

306. Juda yaxshi degan bilimdon sara,
Bilimdon, saraning so`ziga qara.
Nafi bor kishidir, kishi sarasi,
Mehri bor kishidir, kishi sarasi. (132–bet).

307. Ikki narsa erur olam ovozi,
Biri – molu mulku, bir – obro`sozi.
Shu ikkovni olib yashasa kishi,
O`lim kelganida buzilmas ishi. (132–bet).

308. Uchta holdan falokat etishadi. Bular: ovchi itning semirishi, qo`lga o`rgatilgan qushning haddan tashqari to`yib ketishi hamda nafsning kamol topishidir. Ularning yo`lini kesib turish kerak. Shunday qilmasang, qush ovni izlamaydi, ovchi it semiz va to`q bo`lsa, sen otgan narsalarni keltirib bermaydi. Tanu–jon semirsa, ya'ni nafsning kuchayib ketisa, u yovvoyi hayvon sifat bo`lib qoladi, sening tilaklaringga quloq solmaydi. (134–bet).

XULOSA

Xullas, «Qutadg`u bilig» dagi janrlar tizimining mavjud holati haqidagi kuzatishlar quyidagi xulosalarni beradi:

XI asr turkiy tildagi yozma adabiyotning yirik namunasi bo`lmish «Qutadg`u bilig» janrlar tizimiga ko`ra ancha murakkab asardir. Undagi janrlar tizimining umumiy holati XI asrdagi turkiy yozma adabiyotda janrlararo «tabaqalanish» ancha jadallashganini, bu jarayon «Qutadg`u bilig»dagina yorqin tus olganini ko`rsatadi.

«Qutadg`u bilig»dagi mavjud janrlarning ildizi juda «shaxobchali»dir. Ularda bir tomondan milliy an'ana (ham ogzaki, ham yozma), ikkinchi tomondan, boshqa xalqlar adabiyotining (asosan fors-tojik, shuningdek arab v.b.) ta'siri ko`rinadi. To`rtlik janrining shakllanishi va rivoji milliy an'ana bilan bog`liq bo`lsa, masnaviy va qasidalarda (ularning shakliy va mazmuniy xususiyatlarida, shuningdek tasvir printsiplarida) ko`proq fors-tojik adabiyotining roli ko`rinadi. Binobarin, «Qutadg`u bilig» ana shu ikki an'ananing juda murakkab qonuniyatlarini o`zida mujassamlashtirgan asar deb aytish mumkin. Demak, «Qutadg`u bilig» xuddi mana shu yo`nalishlarning o`zaro birikkan joyida maydonga keldi.

«Qutadg`u bilig» turkiy tildagi adabiyotning keyingi bosqichlarida mustaqillik kasb etgan ko`pgina janrlarning shakllanish jarayonida alohida va muhim bosqich bo`ldi. Ayniqsa, masnaviy, qasida, to`rtliklar «Qutadg`u bilig»danoq mustaqillik da'vosini qo`ya oladi. Munozara, tuyuq, ruboiy kabi janrlarning turkiy yozma adabiyotdagi rivoji ham xuddi mana shu «Qutadg`u bilig» dan boshlanadiki, bularning hammasi asarning turkiy xalqlar adabiyoti tarixida qanchalik katta rol o`ynaganligiga jiddiy dalildir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoi kafolatlari.—T.:O`zbekiston, 1997.—140-b.
2. Barolina I.V. Poema «Kutadgy bilig».- V kn.: Yusuf Xas Xadjib.
3. Bertels E. E. Podgotovka k izdaniyu namanganskoy rukopisi. "Kutadgu bilig". - Literaturnaya gazeta, 1945, 10 marta.
4. Balitova A. A. O nekotoro`x poeticheskix osobennostyax «Kutadgu bilig» - M. : Izd-vo Vostochnoy literaturo`, 1960.
5. Valitova A.A. O nekotoro`x terminax v "Kutadgu bilig".- Kratkoe soobhenie Instituta narodov Azii. vo`p. 63. M.: 1962, s. 111-122.
- Valitova A.A. Etnonimo` v tyurkoyazo`chnom pamyatnike XI v.
6. "Kutadgu bilig".- M.: Nauka, 1964.
7. Karimov K. Ilk badiiy doston. - Toshkent: Fan, 1976.
8. Karimov K. «Qutadgu balag» ning topilishi va o`rganilishi tarixidan. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2 - kitob. - Toshkent, UzFA nashriyoti, 1961.
9. Stebleva I. V. Poetika "Kutadgu bilig".- Sovetskaya tyurkologiya, 1970, № 4, s. 94-100.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig (Saodatga yullovchi bilim), transkriptsiya va hozirgi uzbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi K. Karimov. - Toshkent: Fan, 1971.
11. Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon Q.Karimov. - Toshkent: ?ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti,1971.
13. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. - Toshkent: 1972.